جديد

2026-yil 17-aprel
№ 16 (120)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid


adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

TOPILMA

## NODIR QO‘LYOZMA

**Aruz ilmi rivoji masalasida asosan Alisher Navoiy davridan boshlab asarlar yozilgani ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanib kelingan. Biroq tadqiqotlar natijasida XIII–XIV asrlarda yashagan Sadrushshari’a Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoriyning “Risolatu fi ilmil-aruz” asari mavjudligi aniqlandi.**



*(Davomi 7-sahifada).*

## FAKT

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 18-aprel – O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari kuni munosabati bilan tabrigi e’lon qilindi.**

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Butunjahon taekvondo federatsiyasining oliy shaxsiy mukofoti – Shon-sharaf ordeni topshirildi.**

✓ **Javohir Sindorov FIDE Nomzodlar turnirlari tarixida eng ko‘p reyting ochkosi to‘plagan shaxmatchiga aylandi.**

✓ **“Andijon – 2026-yilda turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilingani munosabati bilan Anqara shahridagi TURKSOY bosh qarorgohida ilk yirik tadbir – shahar taqdimoti o‘tkazildi.**

E’ZOZ

## “YURT ISHQIDA YONAMAN!”



**Insonning ma’naviy tadrijida, jamiyatning barqarorligini ta’minlashda madaniyat va san’atning ahamiyati benazirdir. Madaniyat va san’at o‘z tabiatiga itoatan insonlarni ezgulikka, xayrli ishlarga yetaklaydi. San’at orqali odamlar o‘z his-tuyg‘ularini, fikr-u g‘oyalarini, orzu-armonlarini ifoda etish imkoniga ega bo‘ladilar. Badiiy tasvir, musiqa, qo‘shiq, raqs va boshqa san’at namunalari inson ruhini ko‘tarish, xalqni birlashtirish va ilhomlantirish uchun xizmat qiladi.**

Soha xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan yo‘llangan tabrikda madaniyat va san’at xodimlarining mehnati, ularning ijodiy faoliyatining mamlakatimiz madaniy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni alohida ta’kidlangani bejiz emas. Bu e’tirof, albatta, soha fidoyilarining sermashaqqat mehnatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Ular o‘z ijodi bilan jamiyatni rivojlantirish, milliy merosimizni saqlash va dunyoga tanitishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, madaniyat va san’atni rivojlantirish borasida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining alohida e’tibori bilan madaniy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ijodiy loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar jadal rivojlanmoqda.

*(Davomi 3-sahifada).*

NUQTAYI NAZAR

## VATAN OMON BO‘LSIN, VATAN TINCH BO‘LSIN!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari Bosh muharriri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Salim DONIYOROV bilan suhbat



**– Salim Musurmonovich, yangi avlod taniqli jurnalist ham bir vaqtlar yosh bo‘lganini, bugungi mahorat va salohiyatga yillar davomidagi zahmat, o‘qib-o‘rganish orqali erishganini esdan chiqarib qo‘yadi. Ular faqat manzildagi odamni ko‘radi, bosib o‘tilgan yo‘l esa panada qoladi. Savolim siyqaroq chiqsa, uzr: suhbatni jurnalistikaga kirib kelishingiz, ilk maqolangiz yozilishi tarixidan boshlasak.**

– Faoliyatimni “Xalq so‘zi” gazetasida muxbirlikdan boshlaganman. Bir kuni bosh muharririmiz Abbosxon aka Usmonov topshiriq berdi. “Jurnalist kasbini o‘zgartiradi” degan ruknga Siz ham material tayyorlang. Bir kasb-hunarni tanlab, o‘sha bilan yashang, qancha kerak bo‘lsa shuncha vaqt. O‘sha kasb egasining ichki hissiyotlarini, dunyosini, armonlari, maqsadlari, orzularini o‘rganing”.

Hamkasblarimdan biri sotuvchilikni tanladi. Menga arava tortish tushdi. Chilonzor buyum bozoriga borganman. Pasportimni garovga qo‘yib, kunlik arava oldim. Majburiyatdan boshlangan ish qiziqishga aylanib ketdi.

*(Davomi 5-sahifada).*

TAQDIMOT




## DO‘STLIK DOSTONI

**Yaqinda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya doirasida Qozog‘istonda chop etilgan “Turkiy dunyo adabiyoti” turkumidagi yangi kitoblar taqdimoti o‘tkazildi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktyabr kuni Boku shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashi (hozirgi Turkiy davlatlar tashkiloti) sammitida a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat 100 jildlik to‘plamni nashr etish tashabbusini ilgari surgandi. Ushbu loyiha birinchi bo‘lib O‘zbekistonda amalga oshirildi. 2022-yilda to‘plam tayyorlanib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida chop etildi.

Endilikda ushbu tashabbus qardosh Qozog‘iston tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 2025-yildan hukumat dasturi asosida Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi hamda “Mereke baspasy” nashriyoti “Turkiy dunyo adabiyoti” turkumida taniqli adiblarning asarlarini chop eta boshladi. Ayni paytgacha Anorning “Qonaq uy bolmesi”, Xayriddin Sultonning “Baqit jag‘alau”, Sulton Rayevning “Topan”, Arslon Qoyshiyevning “Tuqmqurt” kitoblari o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi.

*(Davomi 2-sahifada).*

IFTIXOR

## MA’NAVIY QUDRAT MANBAYI

**XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida Ikkinchi Renessans davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu tarixiy bosqich nafaqat qudratli markazlashgan davlat barpo etilgani, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviy hayotning mislsiz rivojlangani bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida diniy va dunyoviy bilimlar, madaniyat va san’at, ilm-ma’rifat, adabiyot va she’riyat, ta’lim-tarbiya kabi sohalar jadal rivojlanib, yuqori bosqichga ko‘tarilgan.**



Amir Temur uchun ilm-ma’rifat – davlatning ma’naviy qanotini tashkil etgan. Shuning uchun ham olim-u fuzalolarga zarur shart-sharoitlar yaratib, yangi ilmiy asarlar va kitoblarni chop etishni yo‘lga qo‘ygan. Olimlarni jamiyatning eng muhim qatlami deb bilgan ulug‘ bobomiz “Temur tuzuklari” asarida “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash va tadbir, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, deb yozadi.

*(Davomi 3-sahifada).*

TAASSUROT

## Ko‘p rahmat, Oydin opa!

**Ba’zan shunday asarlar – dostonlar, ohanglar uchraydiki, ular sizni yodingizdan ko‘tarilayozgan botiniy Vatanga qaytaradi. Yurakdagi kemtikliklar nogahon to‘lib, vujudni titroq bosadi, lablaringiz titraydi, ko‘zlaringizda yosh halqalanadi, odamlar ichida turib, beixtiyor qalqib chiqqan xo‘rsiniqdan iymanasiz... Mana shunday kuylardan iborat konsertga anchadan beri bormagan ekanman. Bunday imkoniyat yaqinda nasib etdi. Ruxsat etsangiz, taassurotlarim bilan bo‘lishsam.**

*(Davomi 5-sahifada).*

BUGUNNING SHE’RI

## JAVOHIR SINDOROVGA

**Shatranj bizniki deb guvragan el ham
Bugun taassufda tebratadi bosh.
Bir tomon Ovro‘pa, bir taraf Ajam
O‘tkir nigohingga berolmaydi dosh.**

**Temurxonga dunyo shatranj taxtasi,
Ot surib o‘tgandir mag‘rur, mardona.
Ulug‘bek fikratli bo‘z nabirasi
Ulusga keltirmish azim to‘yona.**

**Ergash Jumanbulbul kuylagan alplar
Sening siyratingda yashaydi bedor.
Sen bois o‘zligin anglaydi qalblar,
Sen bois yurakda baland iftixor.**

**Qachondir bu elni piyoda bilgan
To‘ralar ko‘zini zafar-la kuydir.
Butun yurt kutmoqda duolar bilan,
Xalqqa bobomeros tojini kiydir!**

Otabek BAXTIYOR



Boshlanishi 1-sahifada.

# DO‘STLIK DOSTONI

Ushbu to‘rt kitobning taqdimoti yurtimizda ham intiq kutilayotgan edi. Anjuman avvalida yangi kitoblar namoyishi munosabati bilan ramziy tasma kesish marosimi o‘tkazildi. Shundan so‘ng Ozarbayjon Yozarlar birligi raisi, Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anor Rzayev, Xalqaro TURKSOY tashkiloti bosh kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, “Turkiy dunyo adabiyoti” loyihasi rahbari Mereke Kulkenov, Qirg‘iziston Respublikasi davlat kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Arslon Koychiyev, Tatariston Yozuvchilar uyushmasi raisi Rkail Zaydullin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi – Spichrayteri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton, Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxoliqov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid qardosh xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar tobora mustahkamlanib borayotgani haqida so‘zladi.



**ANOR (Ozarbayjon):**

– Qardosh O‘zbekistonning go‘zal poytaxti Toshkentda, azim bir binoda o‘tayotgan tadbirda ishtirok etayotganimdan o‘zimni xushbaxt his etaman. Da’vatingiz uchun tashakkur! Davlatlar orasida sarhadlarni siyosat yaratadi, adabiyot esa bu sarhadlarni ijobiy ma’noda o‘rtadan ko‘tarib, xalqlarni bir-biriga bog‘laydi.

Bugun biz turk dunyosidan gapirganda, umumiy otamiz Dada Qo‘rqutni xotirlaymiz. Navoiy, Yunus Emro, Fuzuliy, Maxtumquli, Abay, Nozim Hikmat, Chingiz Aytmatovni e’tirof etamiz. Bu buyuk insonlarning sa’y-harakati, yordami bilan turkiy xalqlar bir-biriga yanada yaqinlashdi, bir-birini yanada yaxshiroq tanidi. Shuning uchun men bugungi tadbirni turk dunyosining birlashishi yo‘lida, bir musht bo‘lishi yo‘lida muhim qadam, deb hisoblayman.

Ayniqsa, o‘zbek yozuvchilarining asarlari Bokuda, ozarbayjon yozuvchilarining kitoblari esa O‘zbekistonda nashr etilayotgani adabiy aloqalarimizning yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Mana endi, mening asarim qozoq tilida chop etildi. Tilagim, bunday hamkorlik va ijodiy aloqalar kelgusida ham izchil davom etsin va yanada kengaysin.

Bu dargohga quruq kelganim yo‘q. Ozarbayjonda besh jildlik “So‘z dunyosi” kitobim chiqdi. Unda turk dunyosining buyuk yozuvchilari haqida esselar kiritilgan. Alisher Navoiy, Hamza va Maqsud Shayxzoda haqidagi yozmalar jamlangan jildlarni hurmatli Sirojiddin muallimga, Abay va O‘ljas Sulaymonov haqidagi esselar berilgan kitobni janob Mereke muallimga taqdim etmoqchiman. Rahmat, ko‘p rahmat!



**Mereke KULKENOV (Qozog‘iston):**

– Amir Temurning 690 yilligi faqat O‘zbekiston uchun emas, balki butun turkiy dunyo uchun umumiy bayramdir. Bu tadbirning aynan Toshkent shahrida, Islom sivilizatsiyasi markazida o‘tayotgani bejiz emas. Chunki ko‘plab tarixiy manbalar va arxivlar aynan shu yerda jamlangan. Bu esa nafaqat bir xalq, balki barcha turkiy xalqlar uchun umumiy meros hisoblanadi. Shu bois, azaldan birodar bo‘lgan xalqlarimizni birlashtirib turgan buyuk shaxslarni ulug‘lash barchamiz uchun juda muhim, deb o‘ylayman.

Jami turkiy xalqlarning vakillari bir davrada yig‘ilib, har qaysimiz o‘z tilimizda so‘ylasak ham, bir-birimizni tarjimasiz tushunib o‘tiribmiz. Boshqa bir tilning vositachiligiga tobe bo‘lganimiz yo‘q.

Toshkent – bizning o‘rtoq shahrimiz. XX asrda barchamizning taqdirimiz chiziqlari hech bo‘lmaganda bir marta bo‘lsin, bu shaharni kesib o‘tgani haqiqat. Mayli, tarixda garchi bizni bo‘lib yuborib, yuzko‘rmas qilmoqchi bo‘lishdi. Mana, vaqti kelib, biz bosh biriktirib, birimizning yuragimizni birimiz tushunyapmiz. Ushbu to‘rt kitob shuning dalili.

Ikki-uch yil burun qardosh ijodkorlarimizni qozoq tilida “so‘ylataylik”, degan maqsadda ish boshlagan edik. Tarjima jarayonida asarlardagi o‘ziga xosliklar bilan birga, umumiy jihat ham bizni hayratga soldi. Bu o‘z xalqining taqdiriga hurmat va hamdardlik hissidir. Umumiy tarixga ega turkiylar shu jihatdan bir-birining asarlarini begonasiramay qabul qiladi, tushunadi.

Ushbu kitoblarni aynan O‘zbekistonda, Toshkent shahrida taqdim etayotganimizdan juda mamnunmiz. Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevga chuqur minnatdorlik bildiramiz. Endigi maqsadimiz – shu kabi loyihalar orqali turkiy xalqlar adabiyotini o‘zaro tarjima qilish, shu orqali ma’naviyatimizni, til va madaniyatimizni yanada yaqinlashtirishdir.



**Sulton RAYEV (TURKSOY tashkiloti):**

– Avvalo aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev juda muhim va buyuk konsepsiya – O‘zbekistonning Uchinchi Renessansi g‘oyasini ilgari surdi. Ma’lumki, O‘zbekiston tarixida ikki buyuk Renessans davri bo‘lib, mamlakatning ma’naviyati, madaniyati, me’morchiligi va ilm-fani yuksak taraqqiyotga erishgan. Bugungi asrda O‘zbekiston ana shu taraqqiyot yo‘lini davom ettirmoqda. Uchinchi Renessans g‘oyasi, avvalo, milliy ma’naviyat, madaniyat va tarixiy merosga tayanadi. Islom sivilizatsiyasi markazi ham ana shu g‘oyaning amaliy ifodasi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Menimcha, bunday markazning dunyoda analogi yo‘q.

Shunday dargohda “Turk dunyosi adabiyoti”ning taqdimoti bo‘layotgani yanada ta’sirli va quvonchlidir. Biz avval O‘zbekistonda, endi Qozog‘istonda yo‘lga qo‘yilgan bu tashabbusni qo‘llab-quvvatlaymiz. Boshqa qardosh respublikalarda ham yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha ko‘makka tayyormiz!



**Arslon KOYCHIYEV (Qirg‘iziston):**

– Turkiy dunyo adabiyotining tarixi nihoyatda keng, ildizlari chuqur va mazmunan yuksakdir. Uning ikki ming yillik tarixga egaligi, avvalo, mazkur adabiyotning manbalari qadimiy O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklariga borib taqalishi bilan izohlanadi. Shu ma’noda, bugungi anjuman va tashkil etilgan tadbirni O‘rxun-Enasoy bitiklaridan to XXI asrgacha bo‘lgan turkiy adabiyot taraqqiyotini qamrab olgan muhim ma’naviy voqelik sifatida baholash mumkin.

Bugun taqdim etilgan kitoblarning qozoq tilida nashr etilgani ham alohida ahamiyatga ega. Zero, Qozog‘istonda o‘zbek, ozarbayjon va qirg‘iz adiblarining asarlarini qozoq tiliga tarjima qilish orqali turkiy xalqlar adabiyotini o‘zaro yaqinlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tashabbuslarning yana bir muhim bosqichi aynan bugungi tadbir doirasida o‘z ifodasini topdi. Kelgusida, biz – qirg‘izlar ham o‘zbek, qozoq va boshqa turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘z tilimizga tarjima qilish, bu yo‘nalishda zarur tajriba to‘plashni maqsad qilganmiz.



**Xayriddin SULTON (O‘zbekiston):**

– Fursatdan foydalanib, “Turkiy dunyo adabiyoti” deb nomlangan g‘oyat muhim va ulkan ijodiy loyihaning tashabbuskori bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasi hukumatiga, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi, loyiha rahbari, Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, atoqli yozuvchi, qadrli og‘amiz Mereke Kulkenovga barchamizning nomimizdan chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Eng muhimi, qozog‘istonlik do‘stlarimiz bir necha o‘nlab jilddan iborat bu kitoblarni qozoq tiliga tarjima qilib, har bir kitob uchun shu mamlakatning grafik rassomlariga alohida illyustratsiyalar ishlatib, juda katta mehr va ixlos bilan kitoblarni taqdim qilganlar. Bu judayam katta voqea.

Barchamiz ziyoli sifatida, adib, san’atkor sifatida bilamizki, bu kitoblar yozilgani, albatta, hisob. Bu kitoblarning chop etilgani, tarjima qilingani va ular haqida yozilgani ham hisobga o‘tadi. Lekin hammamiz o‘ylaymizki, bu kitoblar faqat o‘qilgandagina muhim bo‘ladi, faqat o‘qilgandagina chin hisobga o‘tadi. Shuning uchun hurmatli Mereke og‘a va u kishining hamkasblaridan bu kitoblarni O‘zbekistondagi qozoq tilli maktablarga, madaniy markazlarga, qozoq tilida dars beradigan universitetlarga, kutubxonalarga yetkazishda yordam berishlarini iltimos qilardik. Bu kitoblarni o‘qiylik, eng muhimi, bolalarimizga beraylik va ularni ham Turkiy dunyo birligi, umuman, dunyo xalqlarining birligi ruhida tarbiyalaylik.

“Turk dunyosi adabiyoti” seriyasi – juda uzoq o‘ylangan strategik loyiha. Qardoshlarimiz hali yana 50 ga yaqin kitoblarni nashr etishni mo‘ljallagan. Mening bilishimcha, o‘zbek adabiyotidan Tog‘ay Murod, Erkin A’zam, Murod Muhammad Do‘st va boshqa yozuvchilarimiz, shoirlarimizning kitoblarini tarjima qilib, nashrga tayyorlab qo‘yishgan.

Yaxshi bilamizki, mintaqamizning jadidlari hammamizni bir fikrga, bir da’vatga o‘rgatganlar. Bu ham bo‘lsa: “Tilda, fikrda, ishda birlik!” Bu kitoblar shu yo‘ldagi eng muhim amaliy qadamlardir. Zotan, mashhur turkiy maqolimizda aytilganidek, birlik bo‘lmagan joyda tiriklik ham bo‘lmaydi. Chindan ham, et bilan tirnoqdek birikib, ulug‘ maqsadlarimiz yo‘lida Mir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, yakqalam bo‘lib oldinga intilsak, har qanday sinov va mashaqqatlardan yorug‘ yuz bilan mardona o‘ta olamiz.

Biz o‘zbek yozuvchilari orasida “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” degan ibora hikmatli so‘zga aylanib ketgan. Shu ma’noda, barchamizning tilagimiz bitta: dunyo xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik abadiy bo‘lsin. Turkiy ellarning qardoshligi yanada rivoj topsin. Turkiy xalqlar adabiyoti gullab-yashnasin!

* * *

**Taqdimot marosimining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning Buxoro shahridagi uchrashuvi arafasida o‘tkazilishi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi.**

**Ushbu taqdimot do‘stligimizning mangu dostonida yangi sahifa ochgani bilan turkiy xalqlar tarixiga o‘chmas harflar bilan bitib qo‘yilishi, shubhasiz.**

ZIYORAT

# MILLIY G‘URUR QAL’ASI

**Musaffo osmon atlasday rangorang varraklarga to‘la edi.**

**Aprel quyoshi ko‘kning tiniq feruzasida Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazining haybatli gumbazi ustida porlar, oybekona lutfga ko‘ra, gumbazning azamat peshtoqlari naqshlari shu’lalarda jonli, havoiy bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo‘nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o‘ynashar edi.**

Markaz girdo-girdi afsonaviy Semiramida osma bog‘larini eslatuvchi ko‘kalam. Daraxt va butalar oralab o‘tgan yo‘laklarni, keng, tekis va to‘rtburchak hovlini millati, tili, dini va e’tiqodi turfa sayyohlar oqimi to‘ldirgan. Ulug‘bek darvozasi qarshisida yig‘ilayotgan mardumning “Qoyil!”, “Oh my God!”, “Ух ты!”, “Ma sha Allah!”, “Oh là là!”, “İnanılmaz!” kabi turfa xitoblari yaxlit simfoniya yanglig‘, kabutarlarga qo‘shilib havoda uchib yuribdi.

Markazning muzey qismiga kirishda qo‘lida chipta tutgan turnaqator saf. Darvoqe, xalqimizning tarix va ilm-fanga bo‘lgan rag‘batini beqiyos darajada oshirib, milliy g‘ururini to‘lqinlantirib yuborgan Markazga kirish chiptalari har kuni ertalabdanoq sotuvda tugab qolayotgan ekan. Xatto xorijliklar uchun mo‘ljallanganlari ham.

Kuni kecha “Jadid” gazetasi tahririyati jamoasi uyushib, Markazga sayohat ixtiyor etdik. Sayohat avvalida bizga hamrohlik qiluvchi Shahzod ismli yo‘l boshlovchi ajoyib yangilik bilan bo‘lishdi:

– Bugun O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi rasman “Dunyodagi eng yirik Islom sivilizatsiyasi muzeyi” deb tan olindi va Ginnes rekordlar kitobining nufuzli unvoniga sazovor bo‘ldi. Ginnes rekordlar kitobining rasmiy vakili va hakami Sheida Subashi tantanali taqdirlash marosimida ishtirok etdi va Markaz barcha xalqaro standartlarga to‘liq javob berishini tasdiqladi. Bugungi kunda Markazimiz mintaqaning eng ko‘p tashrif buyuriladigan madaniy va ilmiy maskanlaridan biriga aylandi: har kuni 5000 gacha odam kelyapti. Sizning jamoangiz ushbu quvonchli e’tirof e’lon qilingach, tashrif buyurgan birinchi guruh bo‘ldi, tabriklaymiz!

**“Shubhasiz, ushbu mukofot O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mualliflik loyihasiga berilgan munosib e’tirof va mukofotdir. Muhtaram Prezidentimiz bizning faoliyatimiz uchun barcha zarur sharoitlarni yaratdi va bugungi kunda bizning asosiy maqsadimiz O‘zbekistonning boy madaniy merosini saqlab qolish va ommalashtirish, shuningdek, muqaddas dinimizning tinchlik, ma’rifat va bag‘rikenglik dini sifatidagi gumanitar g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy va ta’lim loyihalarini amalga oshirishda ushbu salohiyatdan samarali foydalanishdir”.**

**Firdavs ABDUXOLIQOV, Islom sivilizatsiyasi markazi direktori**

Ushbu maskan o‘ziga xos vaqt mashinasiga o‘xshaydi. Unda ikki soat ichida nafaqat uch ming yillik tariximiz bilan tanishasiz, balki yaqin kelajakka ham nazar tashlay olasiz. Ya’ni, bepoyon tarix olamini bir necha qadamda bosib o‘tish imkoni tug‘iladi.

**1-qadam.** “Samarqand” darvozasi orqali muhtasham “Shon-sharaf zali”ga kirib bordik. Tomi baland ko‘tarilgan tolor devori bo‘ylab 14 ta ravoqda mamlakatimiz taraqqiyotining buyuk tarixiy bosqichlari va allomalari rangtasvir uslubida aks ettirilgan. Freskalar 110 xil rangdagi mikromozaika toshlaridan, qo‘l mehnati orqali yaratilgan ekan. Har bir ravoq ostida sensorli ekran o‘rnatilgan.

**2-qadam.** “Islomgacha bo‘lgan davr” bo‘limida 3000 yillik davlatchilik solnomasi 250 metrga cho‘zilgan “Vaqt devori”dagi barelef, miniatyura va mahobatli rang-tasvir asarlarda aks etadi. Bu yerda Baqtriya, Xorazm, So‘g‘d, Choch va Farg‘ona sivilizatsiyalari, shuningdek, “Lojuvard yo‘li”, “Shoh yo‘li”, “Kumush yo‘li” va “Buyuk ipak yo‘li” tarixi aks etgan.

**3-qadam.** VIII-XIII asrlardagi Birinchi islom Renessansini qamrab olgan bo‘limda Ka’ba eshigining nusxasi, 1988-yilda ishlatilgan ka’bapo‘sh va Misr mamluklari davriga oid Ka’ba kalitlari namoyish etilgan. Shuningdek, bu yerdan Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon ibn Abdulaziz tomonidan taqdim etilgan Kisva parchasi ham joy olgan.

Bo‘lim bizga Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy merosidan jonli hikoyalar so‘zladi. Beruniy tomonidan 1037-yilda yaratilgan globus qayta tiklangan holda namoyish etilgani diqqatga sazovor jihatlardan biri bo‘ldi.

**4-qadam.** XIV-XVI asrlarni qamrab olgan, davlatchilik, ilm va san’at yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan Ikkinchi temuriylar Renessansi bo‘limida temuriylar davri kashfiyotlari, me’morchilik va kitobat san’ati xaritasi



jamlangan. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo xotiralari asosida yaratilgan Saroymulkxonimning shohona libosi yig‘ilganlarning diqqatini o‘ziga tortmoqda.

**5-qadam.** “Yangi O‘zbekiston – Yangi Renessans poydevori” bo‘limida so‘nggi yillarda Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlarning yaxlit manzarasi namoyon bo‘ladi. Ekspozitsiyada 2017–2021-yillardagi Harakatlar strategiyasi va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Interaktiv installyatsiyalar orqali suveren, demokratik va huquqiy davlat qurish jarayoni, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi va ochiqlik tamoyillari namoyish qilinadi. Bu yerda an’ana va zamonaviylik uyg‘unlashib, inson qadrini ustuvor tutadigan yangi davlat qiyofasi namoyon bo‘ladi.

**6-qadam.** Markazda VII asrda ko‘chirilgan qadimiy Usmon Mus’hafi joylashgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, Mus’haf XIV asr oxirida Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan. 2025-yil 13-noyabrdan ushbu muqaddas kitob O‘zbekiston Islom sivilizasiyasi markazining Qur’oni Karim zalida saqlanmoqda. Mus’haf atrofida Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar davrida ko‘chirilgan 114 ta Qur’on qo‘lyozmalari joylashtirilgan. 65 metr balandlikdagi gumbaz ostida o‘rnatilgan ulkan qandil va oyatlar bitilgan ipak gilamlar zalga alohida salobat bag‘ishlaydi.

Sayohatimiz “Shon-sharaf zali”ga qaytib nihoyasiga yetdi. Kirayotganda bu rasmlar betakror bezak o‘laroq tasavvur uyg‘otgan bo‘lsa, qaytishda har biri tarixning jonli va shonli ko‘zgusi sifatida qalbimizga muhrlandi. Ayniqsa, shu vaqtgacha tarixga oid muzeylardagi eksponatlar ostiga “Nusxasi. Asli falon muzeyda” degan yozuvlarni ko‘rib yuragimiz achishar edi. Mana, tarixiy va qimmatbaho osori-atiqalarning aslini o‘z yurtimizda ko‘rish imkoni yaraldi, shukr, ming shukr!

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi sayohatidan chiqar chog‘i yana bir bor Ulug‘bek darvozasiga boqib, Qahramon shoirimiz Abdulla Oripovning quyidagi satrlari yodimga tushdi:

*Asrlarning silsilasida*
*Boqiy turgay koshonang sening.*
*Ulug‘ bashar oilasida*
*Mangu yorug‘ peshonang sening.*
*Mangu yorug‘ maskanim manim,*
*O‘zbekiston – Vatanim manim*!

Ushbu betimsol Markaz ana shunday boqiy turguvchi maskan bo‘lib qolishiga ishonamiz.

**Otabek BAKIROV**




# “YURT ISHQIDA YONAMAN!”


Boshlanishi 1-sahifada.

Milliy an’ana va qadriyatlarimizni yosh avlodga to‘laqonli yetkazish maqsadida O‘zbek milliy maqom san’ati va Respublika Baxshichilik san’ati markazlari, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, “Bahor” davlat raqs ansambli, Andijonda yoshlar simfonik orkestri va Farg‘onada milliy simfonik orkestrlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti kabi yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil qilindi.

Sharafli Zokirovlar sulolasi haqida so‘z ketganda, kuni kecha Ko‘ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida milliy estrada san’atining yorqin namoyandasi, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovning 80 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali tadbirga to‘xtalmoqchimiz. Muqaddimada Davlatimiz rahbari shaxmatchimiz Javohir Sindorov bilan telefon orqali muloqot qilib, Xalqaro shaxmat federatsiyasining Nomzodlar turnirida qozongan tarixiy g‘alabasi bilan tabriklagani haqida va yosh grossmeysterimiz javoban, albatta, finalda g‘olib bo‘lib, shaxmat tojini Vatanga olib boraman deb va’da berganini aytganida Ko‘ksaroyning muhtasham tantana zali gulduros qarsakdan larzaga keldi.

Shundan so‘ng Prezident Zokirovlar oilasiga baho berarkan, “sulola” atamasiga alohida e’tibor qaratib, bu xalqimiz taraqqiyotida noyob voqelik ekaniga urg‘u berdi.

Sulola qariyb 70 yildan ziyod vaqt mobaynida milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’atimiz rivojiga beqiyos hissa qo‘shib keladi. O‘zbekiston xalq artisti Karim Zokirov asos solgan san’at maktabi, milliy o‘zbek estradasi asoschisi Botir Zokirovning boy ijodiy merosi xalqimizning ulkan ma’naviy boyligi sifatida yuksak qadr topgan. Butun bir oila va avlodning o‘z umrini san’at va madaniyat ravnaqiga bag‘ishlashi dunyoda kam uchraydigan noyob hodisa. Farrux Zokirov ana shu ulug‘ an’analarni munosib davom ettirib, milliy estrada san’atini yangi bosqichga olib chiqqan, nafaqat xalqimiz, balki butun Markaziy Osiyo, Hamdo‘stlik mamlakatlari va turkiy ellarning sevimli san’atkori. Uning O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti faxriy unvoni bilan bir qatorda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston va Ingushetiya xalq artisti yuksak unvonlariga sazovor bo‘lgani o‘zbek san’atkorining ijodiga xalqaro miqyosda berilgan katta baho desak to‘g‘ri bo‘ladi.



“Bugun Farrux Zokirov deganda “Yalla” ansambli, “Yalla” deganda esa Farrux Zokirov siymosi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Mana 55 yildirki, ushbu mashhur jamoa nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning nufuzli sahnalarida ham go‘zal qo‘shiqlar kuylab, millionlab muxlislar mehrini qozonib kelmoqda”, deb o‘z so‘zini davom ettirdi Millat yetakchisi.

Darhaqiqat, “Yalla” ansambli jamoaviy estrada ijrochiligini yo‘lga qo‘yib, yurtimiz san’ati va madaniyati tarixida butunlay yangi sahifa ochdi. Farrux Zokirovning ko‘p yillik samarali mehnati, milliy madaniyatimiz va san’atimizni rivojlantirish yo‘lidagi fidokorona xizmatlarini munosib taqdirlab, Prezident tomonidan alohida farmon va qaror imzolangani haqida, hujatga ko‘ra Yashnobod tumanidagi 7-son bolalar musiqa va san’at maktabiga Farrux Zokirov nomi berilib, ushbu maktabda “Yalla” nomidagi bolalar ansambli, yoshlar ijodiy laboratoriyasi, zamonaviy ovoz va video yozish studiyasi tashkil etilishi va qator imtiyozlar berilishi belgilanganini anjuman ahli tik turib olqishladi.

Yangi O‘zbekiston inson qadri, xalq manfaati, Vatan ravnaqi va adolat barqaror bo‘lgan yurtga aylandi. Prezidentimiz milliy san’atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish yo‘lidagi ko‘p yillik beqiyos faoliyatini inobatga olib, Farrux Zokirovga “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini topshirgani biz tilga olib o‘tgan oliy tamoyillarning amaliy tasdig‘i bo‘ldi.

Taqdirlovdan keyin so‘z olgan Farrux Zokirov hayajon ichida o‘z tuyg‘ularini izhor etarkan, Zokirovlar oilasi va san’atiga berilgan yuksak e’tibor va e’tirof uchun Prezidentga chuqur minnatdorlik izhor etib, bor iste’dodi va kuch-g‘ayratini ishonchni oqlashga safarbar qilajagini bildirdi.

Taassurot yakunida muhtaram Prezidentimizning sohaga oid ushbu so‘zlarini keltirmoqchimiz: **“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi...”**

Endi qiyos uchun kechagi kunga bir nazar tashlab, bugungi e’tibor va sharoitga munosib ijod qilib, o‘lmas asarlar yaratish barchamizning burchimizga aylandi.

**Iqbol MIRZO**

MULOHAZA

# HAYOTIY HIKMAT



**Tepada oq salla o‘ragan tog‘ cho‘qqilari. Pastda daryo shovullaydi. Bahorda olam yam-yashil. Havo benihoya muloyim. Yozloq-chorbog‘imiz shu so‘lim makonda.**

Baxtiyor aka ismli kamolonlik yaxshi qo‘shnim bor. O‘z kasb-hunariga, o‘z sohasiga tegishli kitoblarni puxta o‘qigani seziladi. Hayot kitobining mutolaasi inchunin.

Qo‘shnilar jamlanib biror mavzuda gurungga beriladigan bo‘lsak, biz ba’zan yangi o‘qigan allaqanday roman yoki hikoya epizodlaridan gap ochamiz. Baxtiyor aka boshini egib, ko‘zlari ostidan boqib, bizni jimgina eshitib turadi-da, so‘ngra o‘z bisotidan so‘zlaydi.

– Ha, tomorqaga e’tibor zarur, Xurshid aka. O‘z vaqtida suv qo‘ymasangiz, gullar qurib qoladi-ku. Ko‘chat ekib, bog‘ qilish kerak, to‘g‘ri aytasiz, Sharif og‘a. Ammo bir qarindoshimning kelini bor, bilmadim, ildizi chorvadorlarga borib taqaladimi, hartugul, tomorqada biror cho‘p ko‘karsa, tagi bilan chopib tashlaydi-de. Abdulla aka, hayronman.

Tabiiyki, menga o‘xshashgan some’ darhol haligi chorvador degan joyini qayta ijikilab so‘raydi.

– Chorvadorlar odatda, qo‘ymolining ipi, arqoni o‘ralashib qolmasin deb, tomorqada ko‘kargan har qanday cho‘pni chopib tashlaydi-de, – Baxtiyor aka shunday izoh beradi.

– Ha, hi-im, bilmas ekanman.

– Siz o‘qigan kitoblarda bu gaplar yo‘q-de, Bahodir.

Baxtiyor aka aytadigan hayotiy hikmatlar, darhaqiqat, endi-endi kitoblarda bitilsa ajabmas.

To‘g‘rimizdagi qo‘shni – Alibek domladan meros hovlisida quruvchilar ishlayotgan edi. Ish nihoyatda og‘ir. G‘isht, shag‘al, tosh, sementli ish. Bir mahal davrada gap-gapga ulanib, mardonavor ishlayotgan shu yigitlarning ta’lim-tahsili, o‘qishlaridan gap ochildi. Biri allaqaysi universitetda sirtdan o‘qir ekan. Yaxshi. Juda yaxshi. Ammo ishboshi qoruvli yigit otasi benzin quyish shoxobchasida ishlagani va shundan kelayotgan daromad tufayli o‘qishga ko‘p ham diqqat qaratmaganidan so‘zladi. Afsuslanib bosh chayqadi. O‘sha shoxobcha yopilgach, mana shu og‘ir ish bilan mashg‘ul ekan.

Har doimgidek Baxtiyor aka qiyo qarab, tingladi-da, so‘ngra so‘zladi:

– Endi o‘ninchini bitiradigan yilim. Hozirgi xiyobon markazida kabob sotaman, deng. Kuniga ellik rubl foyda bor. U mahallarda sizga o‘xshagan professor degani bazo‘r to‘rt yuzmi-besh yuz olsa kerak. Yoz keldi, tengqurlarim institutlarga hujjat topshira boshladi. Men haligi kunlik kirim bilan mast yuribman-de. Shunday kunlarning birida dadam rahmatlik yoniga chaqirdi. Bunday chog‘larda jiddiy gapi borligini bilaman. Har holda gap uylanish haqida emas, unga hali vaqt bor. So‘riga borib yonlariga adabi bilan tiz cho‘kib o‘tirdim. Kutilmaganda o‘qishdan so‘z ochdi, rahmatlik. Men biroz u yoq-bu yoqqa tashladim. Kabobpazlikdan kelayotgan kunlik daromaddan ham maqtanib qo‘ydim orada. Hech yodimdan chiqmaydi o‘shanda dadam aytdiki: “Sen pulning ketidan chopganing ma’qulmi yoki pul sening ortingdan chopqillab kelsinmi?” Tabiiy, pul meni izlab topsin, deyman-da. Bu javobimdan keyin bir og‘iz qat’iyan: “Unda, o‘qigin!” dedilar hukm chiqarib. Shu bo‘yi qattiq hozirlik ko‘rib o‘qishga kirib ketganman. Dadamning gaplari naq haqiqat chiqdi. Bir umr temiryo‘l sohasida injener bo‘ldim. Xudoga shukr, kamlik ko‘rmadim. Shunaqa, hali ham kechmas, imkoni bo‘lsa, o‘qish kerak!

Baxtiyor akaning gapidan keyin yigitlar o‘ylanib qolishdi.

Azizlar, bu jaydari hikmatni gurung orasida topdim va sizlarga ham ilindim. Shoyad...

**Bahodir NURMUHAMMAD**

Boshlanishi 1-sahifada.

Amir Temurning ilmga bo‘lgan muhabbati uning bunyodkorlik falsafasida ham aks etgan. Bu yo‘lda Samarqandni o‘z davrining yirik ilmiy-madaniy markaziga aylantirishni maqsad qilgan va o‘z niyatiga erishgan. U qurdirgan har bir madrasa ilm-fan o‘chog‘iga aylanib, jamiyat ravnaqiga xizmat qilgan.

Amir Temur dunyoning turli mamlakatlaridan ko‘zga ko‘ringan faqihlar, muhaddislar, mufassirlar, mutakallim va xattotlarni Samarqandga olib kelib, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bunday olimlar qatorida Muhammad ibn Jazariy, Sa’duddin Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoniy va Ibn Arabshoh kabilarni sanab o‘tish mumkin. Bu esa islom ilmlari sohasida o‘zaro bilim va tajriba almashinuvini kuchaytirgan, ilmiy muhitni yanada boyitgan.

Bu davrda Samarqandda ko‘plab masjidlar, madrasalar, kutubxonalar va boshqa ilmiy muassasalar barpo etildi. Bibixonim masjidi, Shohi Zinda ansambli kabi obidalar nafaqat me’moriy jihatdan, balki ma’naviy va ilmiy markaz sifatida ham shuhrat qozondi. Kutubxonalar esa qo‘lyozmalarni to‘plash, saqlash va qayta ko‘chirish, tarjima ishlarini tizimli amalga oshirishga xizmat qilgan. Temuriylar davrida madrasalarda Qur’on va tafsir ilmi, hadis, fiqh, aqida bilimlari bilan bir qatorda, mantiq va falsafa, astronomiya va matematika, tibbiyot kabi dunyoviy aniq fanlar o‘qitilgan.

Amir Temur va temuriy shahzodalar ilm ahliga homiylik qilishni, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni o‘zlari uchun asosiy vazifa deb bilishgan. Natijada, bu davrda yetishib chiqqan olimlar jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shib, Sharqda Ikkinchi Renessansga asos solganlar. Bu davrda Mirzo Ulug‘bek astronomiya sohasida o‘z davridan juda ham ilg‘orlab ketgan buyuk kashfiyotlar qilgan. Jumladan, uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” yulduzlar jadvali asrlar davomida Yevropada ham asosiy ilmiy manba sifatida qo‘llanilgan. G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar esa matematika, astronomiya va mantiq sohalarida, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk daholar adabiyot, ma’naviyat va tasavvuf ilmlarida o‘chmas iz qoldirgan.

Amir Temur va temuriylar davrida islom ilmlari rivojiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada shuni aytish mumkinki, birinchidan, mavjud ilmlarni tizimlashtirgan holda o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ikkinchidan, islom ilmlarini amaliy hayotga tatbiq etish keng kuzatilgan. Masalan, Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya fani yutuqlaridan ibodat vaqtlarini, shuningdek, Ramazon oyining boshlanishini aniqlashda foydalanilgan. Uchinchidan, hukmdorlar tomonidan ilm ahlining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi islom ilmlarining rivojlanishiga katta turtki bergan.

Temuriylar davrida xattotlik san’ati, ayniqsa, kitobat madaniyati taraqqiy etib, har bir qo‘lyozma san’at asari darajasida yaratilgan. Xattotlar Qur’oni Karim nusxalarini, ilmiy va badiiy asarlarni go‘zal yozuvlarda ko‘chirishni yo‘lga qo‘yganlar. Nash, suls va nasta’liq kabi xat turlari keng qo‘llanilgan. Kitob yaratish jarayonida xattot, musavvir va muzahhib (zarhallovchi) kabi hunar egalari ishtirok etgan. Bu hamkorlik natijasida haqiqiy san’at asarlari yaratilgan. Hirot maktabi miniatyura san’ati bu sohada alohida mashhur bo‘lgan. Temuriylar davrida Hirot shahri tasviriy san’at, xattotlik, she’riyat va adabiyot, me’morchilik markaziga aylangan bo‘lsa, Samarqand tafsir, kalom, mantiq, balog‘at, astronomiya, matematika kabi fanlar yuksak taraqqiy etgan bilim markazi sifatida mashhur bo‘lgan.

Amir Temur va temuriylar davrida, ayniqsa, Qur’oni Karim nusxalarini ko‘chirishga alohida e’tibor qaratilgan. Qur’on nusxalarini tayyorlashga nafaqat ehtiyoj, balki yuksak san’at an’anasi sifatida qaralgan. Samarqand va Hirot kabi shaharlar bu sohada jahon ahamiyatiga molik markazlarga aylangan. Amir Temur va temuriy shahzodalarning Qur’on kotiblariga homiylik ko‘rsatishlari, hatto o‘zlari ham shaxsan ushbu faoliyat bilan bevosita shug‘ullanishlari bunga sabab bo‘lgan.

Xususan, Amir Temurning kotibi Umar Aqto tomonidan 1402–1405-yillarda ko‘chirilgan Qur’on nusxasi bugungi kunda Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida saqlanadi. Bundan tashqari, Amir Temurning nevarasi Ibrohim Sulton o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan yana bir Qur’oni Karim nusxasi ham yuqorida qayd etilgan muzeyda saqlanadi. Eronda ham Ibrohim Sulton tomonidan ko‘chirilgan Qur’oni Karimning bir nechta qo‘lyozmalari mavjud. U Sherozda ikkita xattotlik maktabiga asos solgan. Xattotlik faqatgina kitobat san’atida emas, balki me’morchilikda ham keng qo‘llanilgan. Masjid va madrasalar devorlaridagi oyat va hadislar nafaqat ma’no, balki yuksak estetik ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

Temuriylar davri tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilm-fanga e’tibor qaratish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Ayniqsa, ilm va san’atning uyg‘un rivojlanishi temuriylar davrining eng muhim xususiyatidir. Bu jihat bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, oradan yetti asrga yaqin vaqt o‘tdi. Bugun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mana shu tarixiy davomiylikning amaliy isbotidir. Ushbu zamonaviy majmua nafaqat ajdodlar merosiga ehtirom, balki Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan Yangi O‘zbekistonning zamonlar osha aks etayotgan qudrati va bunyodkorlik ruhini ifoda etadi. Islom sivilizatsiyasi markazi – Temuriylar boshlagan ma’rifiy yurishning mantiqiy davomidir. Bu maskanda buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg‘onish davri – Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temurning milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida egallagan o‘rni hamda temuriylar merosiga alohida e’tibor qaratilgan. Markazning Ulug‘bek portalidan kiraverishdagi “Shon-sharaf” zalida diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va sarkardalar tasvirlangan bo‘lib, Amir Temur siymosi undan munosib o‘rin olgan.

Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazining yirik ekspozitsiyasi “Ikkinchi Renessans va o‘zbek xonliklari davri” deb nomlanib, bu yerda asosan temuriylar davri ilm-fani, san’ati va madaniyatiga oid qimmatli asarlar va nodir ashyolar bilan birga, o‘sha davr tamaddunining jahon taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasini gavdalantiruvchi noyob eksponatlar o‘rin olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 46-son qarori temuriylar dunyoga taqdim etgan merosni qayta tiklashda yangi davrni boshlab berdi. Qarorga ko‘ra, endilikda har yili aprel oyi mamlakatimizda “Amir Temur oyligi” sifatida keng nishonlanadi, “Temur tuzuklari” asari jahonning ko‘plab tillarida chop etiladi. Xorijda saqlanayotgan nodir qo‘lyozmalarning nusxalari yurtimizga olib kelinadi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi eng zamonaviy texnologiyalar asosida rekonstruktsiya qilinadi.

Mamlakatimizda Amir Temur nomidagi davlat stipendiyasi va “Temuriylar merosini asrash” umummilliy jamg‘armasining tashkil etilishi ilm-fan va ta’lim sohasidagi temurshunoslik an’analarini yangi bosqichga ko‘taradi. Ushbu islohotlar nafaqat tarixiy merosni muhofaza qilish, balki Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan Yangi O‘zbekiston uchun ma’naviy kuch-quvvat manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

# MA’NAVIY QUDRAT MANBAYI

**Komiljon SHERMUHAMEDOV,**
**Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent**

# “Laylining ganjidan gavhar keltirdim...”

Halima AHMEDOVA



* * *

*Halima, uyg‘ongin, Halima, uyg‘on!*
*Men senga yarim tun qamar keltirdim.*
*Xudo tomondagi darichani och,*
*Mashrabdan qadimiy daftar keltirdim.*

*G‘amginsan,ma’yussan,*
*parishondursan,*
*G‘amni o‘ldirguvchi zahar keltirdim.*
*Xazinam yo‘q deding,*
*nochorman, deding,*
*Laylining ganjidan gavhar keltirdim.*

*Kel deding, kelmadi, endi o‘zing bor,*
*Bolalik tomonga safar keltirdim.*
*Qushlar ovozida sog‘inching qolgan,*
*Bulbullarga to‘la sahar keltirdim.*

*Ruhingni kuzlarga o‘g‘rilatganding,*
*Senga yangi ruhi dilbar keltirdim.*
*O‘zingni zulmatdan ajratib ol, deb,*
*Uning nigohidan nazar keltirdim.*

*Hijron achchiqligin sezmaysan endi,*
*Majnun do‘konidan shakar keltirdim.*
*G‘am yema, ey mening*
*Zulayho ko‘nglim,*
*Oshiq Yusufingdan xabar keltirdim.*

* * *

*Meni payvand qiling, toki ko‘karay,*
*Osmonning zabardast novdalariga.*
*To‘fonni sog‘ingan buyuk dengizday*
*Bir ishq tug‘yon urar ko‘nglim qa’rida.*
*Bag‘rim qoni bilan boqdim umidni,*
*Goh chumoli bo‘ldim, gohi bolari.*
*Uzoq qarindoshman daryolar bilan,*
*Dunyoga boqaman to‘lqin singari.*

*Bibim aytar edi:*
*– Soyamiz miskin,*
*Garchi ko‘ksimizda ulkan qoyalar...*
*O, naqadar mening jonimga tegdi,*
*Soyadan ajralib chiqqan soyalar.*

*Sulaymon bog‘ining uzumlariday*
*Umidim g‘arq pishgan go‘yo musallas.*
*Ruhimga bostirib kirar har lahza*
*Adashgan bo‘ronday ilohiy nafas.*

*To‘fonni sog‘ingan buyuk dengizday*
*Bir ishq ko‘zlarimda qaynatadi may.*
*Osmonning zabardast novdalariga*
*Meni payvand qiling, toki ko‘karay.*

* * *

*Yashasa bo‘ladi, hali quyosh bor,*
*Daraxtlar qonida mavj urar hayot.*
*Mayli-da, qush bo‘lish istagi bilan*
*Xazonlar tinmasdan qoqqanda qanot.*

*Yashasa bo‘ladi, garchi daryolar*
*Ovozi eshtilar olis-olisdan*
*Va shodlik butasin chirmovuq misol*
*O‘rab, ishqni izhor etar ekan g‘am.*

*Yashasa bo‘ladi, ilohiy farrosh –*
*Tong qalblar sinig‘in supurarkan jim.*
*Ostonangda juda yaqin do‘st kabi*
*Turarkan jilmayib mehribon o‘lim.*
*Yashasa bo‘ladi, vayrona ko‘ngil*
*Ichida o‘ynarkan zaharolud nur.*
*G‘urbat dengiziga cho‘kyotib kimdir*
*G‘amgin shivirlarkan: “Xudoga shukur...”*

*Yashasa bo‘ladi, bemalol tinglab*
*Faryodi jontalash kuzgi gullarni.*
*Yashasa bo‘ladi,*
*Qadim mayxo‘r kabi paydar-pay ho‘plab,*
*O‘tmagan kunlarni, o‘tgan kunlarni*
*Yashasa bo‘ladi...*

* * *

*Shopir meni, shopir, kuzning shamoli,*
*Bilay donim qayda, somonim qayda?!*
*Ruhimdagi katta dardim oldida*
*Dunyoing buncha tor, bunchalar mayda.*

*Jahannam ichidan o‘tib kelganman,*
*Garchi jannat isi dimog‘imda bor!*
*Qalbim g‘oridagi ulkan ganjimni*
*Na bir do‘st topoldi, na biror ag‘yor.*

*Shopir meni, shopir, kuzning shamoli,*
*Bilay zerim qayda, zabarim qayda?!*
*Ishqning bozorida bir pulga sotgan*
*Mahbubim anglasin, gavharim qayda?!*

*Boshoqlar tiliga o‘girdim dilni,*
*Necha fasllar-u va necha oylar.*
*Ruhim dalasida yetilib yotar*
*Bahorgi bug‘doylar, kuzgi bug‘doylar.*

*Ko‘nglim yorug‘ edi, yo‘lga tushganman,*
*Kelganman bog‘larning xilxonasidan.*
*Shopir meni, shopir, toki qaytadan*
*Yaralay tiriklik afsonasida.*

* * *

*Mezon suvlarida oqayotgan bulut*
*Ko‘ksida ko‘raman yomg‘ir tig‘ini.*
*Sayrga olib chiqqum gohi-gohida*
*Xonada zax tortgan yolg‘izligimni.*

*Odamlar o‘tadi nigohi bo‘m-bo‘sh*
*Va yo yuqtirilgan begona charchoq.*
*Loqayd kuz shamolin panjalarida*
*Zerikkan daraxtlar esnaydi uzoq.*

*Sarg‘aygan umidim g‘ijimlab pinhon,*
*Osmonni chaqirgan ko‘ngillariga*
*Kapalak izidan entikib boqqan*
*Rahmim kelib ketar xayrigullarga.*

*Za’faron bag‘rida hali nurlar bor,*
*Yuragimga botar quyosh sinig‘i.*
*Bilmadim, umidmi, umidsizlikmi*
*Qalbimda qalqigan notanish yig‘i?*

*Parishon izlayman shodlik ovozin,*
*Tinglagayman tag‘in sovuq sukutni*
*Va so‘ngra xonamga olib qaytaman,*
*Mezon suvlarida oqqan bulutni.*

* * *

*Qushlar uchib ketdi quyosh tomonga,*
*Ko‘zlarim chaqirdi o‘lgan yomg‘irni.*
*Og‘ir qadamlarin botirib jonga,*
*Shamol ermaklaydi keksaygan yerni.*
*Qaysi bir savdoda adashdim, toldim,*
*Ismimga kim ekdi azob urug‘in?*
*Huv-v-v eski nurlarning ortida qoldim,*
*Kim yamar, kim yamar umid yorig‘in?!*


*Hayot tishlanmagan olmaday shirin,*
*Qon ichra o‘ynarkan shaffof talvasa.*
*Qismatda qandaydir qo‘rquv yashirin,*
*Cho‘chitar tunning labidagi qorong‘i bo‘sa.*

*Ilinib turibman nur zarrasida,*
*O‘zimni o‘zimga aylabon takror.*
*Nima bor tiriklik hujayrasida,*
*Xudojon, nahotki hammasi bekor?*

*Oy ruhiday sovuq manglaydagi ter,*
*Ishqmi u, ruhimni qamchilayotgan?!*
*Yolvoraman, faqat menga aytib ber,*
*Kim u yuragimda sanchilayotgan?!*

**TERAN TOMIRLAR**

# IZLARNI IZLAB...



***“O‘zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko‘nglini ovlab) do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasida muomala, murosa-yu madora qilish xususida...” ko‘p kengash va tadbirlarni qo‘llagan ulug‘ bobomizni har qancha bosh uzra tutsak, boshimiz shuncha sarbaland bo‘lg‘ay.***

***Muhtaram Prezidentimiz qarori bilan har yili aprel oyi Amir Temurga bag‘ishlanishi belgilab qo‘yildi. Ilk bor Navro‘z tantanalarida buyuk sarkardamizning muzaffar bayrog‘i mag‘rur hilpiradi. Elning ko‘kayi tag‘in bir chinor bo‘yi o‘sdi. Bul ajib shukuhdan to‘lqinlanib ketgan kamina navkaringiz ham “ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab, shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘y”moq ilinjida ko‘hna Kesh qal’asi sori yo‘lga tushdi.***

**Sohibqiron tug‘ilgan tuproqni ziyorat qilganimdan so‘ng ko‘nglimga kelgan birinchi kengashim**

Amir Temur milodiy 1336-yil 9-aprel kuni hozirgi Shahrisabz yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Bu joy bugun Yakkabog‘ tumaniga qaraydi. Ko‘klamda borsangiz, yam-yashil dalani ko‘rib, yayrab ketasiz. Eh-he, agar o‘n yilcha burun kelganingizda edi, “Bu yerda Amir Temur bog‘i ochiladi! Sohibqiron aynan mana shu quduq yonida tug‘ilgan! Bu joy hali jahon sayyohlari bir ko‘rishni orzu qiladigan muqaddas qadamjoga aylanadi!” deya chiranib nutq irod etayotganlarga duch kelardingiz.

Gapni cho‘zmay, Amir Temur tavalludi va bolaligi haqida tarixiy kitoblar orqali ham mavzulashtirilgan bog‘ yaratsak bo‘lardi. Bu joy haqiqatan ham bobomiz tug‘ilgan tuproq bo‘lsa, uning hurmatini qilib, o‘n minglab mehmonlar, ziyoratchilar keladigan muhtasham maskanga aylantirish lozim emasmi?

Keling, o‘zimizga qaytamiz. Kengliklarga qarab kishi hayrat va xayolga ergashadi. Nahotki, jahonni fath etgan buyuk sarkardaning bolaligi shu yerlarda o‘tgan. Ko‘zni yumib, chuqur nafas olgancha tasavvur qilasan kishi:

*“Ana, o‘n yoshli Temurbek tengdoshlari bilan kurash tushmoqda. Barini yiqitdi! Qoyil, yashavor, azamat! I-ya, tag‘in bunisi kim bo‘ldi? Olishaman deydimi? Temurbekdan katta-ku? Chamasi, orada besh yosh bor. Tarag‘ay Bahodirning o‘g‘lini qarang, jikkakkina bo‘lib daroz yigitga bo‘yin cho‘zadi-ya! Boboylar soqolini selkillatib, boshni sarak-sarak qilib, yelka uchirib kulishini ko‘ring. Hay, mayli, olishsa-olishsin! Shundog‘am o‘ntasini yiqitib, kuchdan qoldi. Baribiram Oqsoqolimizning to‘ng‘ichiga kuchi yetarmidi? Qo‘yib berishdi. Olish boshlanishi hamonoq Temurbek devdekkina raqibini yelka oshirib otdi. Bechoragina gurs etib tuproqqa tushdi-yu boshini changallab qoldi...”*

Xalq orasida yurgan rivoyatga ko‘ra, Temurbek shu to‘ydan qaytar paytida ori chidolmagan qishloq yigitlari o‘rtaga olib, oyog‘ini sindirgan. Aslida, gapning rosti Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”sida mufassal bayon etilgan. Buyuk bobomizning o‘zlari ham “Temur tuzuklari”da shunday degan: *“Seyiston voliysi va’dasiga vafo qilmagani uchun ilojsiz yo‘llarini to‘sib, jang-u jadalga kirishdim. Shu payt bir o‘q kelib bilagimga qadaldi, yana biri oyog‘imga tegib yaraladi… O‘sha viloyatda yaralarim bitguncha ikki oycha turib qoldim”.*

Kengliklarga qaytamiz. Hazratimiz yigirma to‘rt yoshlariga dovur Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida yashagan va ko‘p qatori kurash, ko‘pkari, “oq suyak”, “churr-kes”, poyga, tosh ko‘tarish, “taka lov-lov” va boshqa o‘yinlar bilan shug‘ullangan. Padari buzrukvori barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli edi. U kishi Turkistonning o‘sha paytdagi hukmdori Amir Qozog‘on oldida ishonch qozongan hurmati bor beklardan hisoblanar, Chig‘atoy ulusi beklari qurultoylariga qatnashib turardi. Harbiy ishlarga mayli yo‘q, taqvodor, vaqtini darveshlar bilan o‘tkazardi. Sharafiddin Ali Yazdiyning ta’biricha: “Tarag‘aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...”

Shu qurultoylarda ko‘zi pishgan Temurbekda millatparvarlik qoni jo‘sh uradi. O‘smirlik davridanoq jonajon yurti yovlar qo‘lidaligidan g‘ashi kelar va bo‘lajak janglarga ma’naviy-jismoniy kuch to‘plab borardi.

Darvoqe, Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i qabristonida “Polvon tosh” ham bor. Amir Temur yigitlik chog‘larida ushbu g‘ayrioddiy shakldagi qadimiy toshni ko‘tarib mashq qilgan, deyishadi. Og‘irligi yuz kiloga yaqin. Haligacha sayilda yig‘ilgan yigitlar toshni o‘rtaga olib, yeng shimarib musobaqalashib turishadi.

Yakkabog‘ tumanidagi Tutak qishlog‘ida ham Amir Temurning piri Tutak ota (Boboyi Valiy) bilan bog‘liq boshqa bir “Polvontosh” mavjud. Og‘ir yukni yerdan uzarda tish orasidan sirg‘alib chiqadigan “Yo pirim!” degan nido shundandir ehtimol...

**Shu payt bahs boshlanib ketadi.**

Bilagi zo‘rlar: “Bu – polvontosh!” deydi. Bilimi zo‘rlar esa: “Bu – qabrtosh”, deydi. Bilagi zo‘rlar: “Isbotla!” deydi. Bilimi zo‘rlar: “Uning beshiksimon shakli temuriylar davridagi qabr toshlariga xos, Samarqanddagi Shohi Zinda ansamblidagi qabrtoshlar ham shunday!” deydi. Polvonlar qosh uyib: “Bu bir qairoqtosh bo‘lsa, qabrtosh degani marmardan ishlanmaydimi? Ana, yozuviyam yo‘q-ku?! Toshimizni tinch qo‘yinglar!” deydi. Bilgichlar ham toshingni ter desa, terib ketarmidi? Tag‘in qizishadi: “Toshda yozuv yo‘qligi ham tabiiy hol: o‘rta asrlarda ayrim qabr toshlari, ayniqsa, go‘daklar, ayollar yoki oldindan tayyorlangan, lekin ishlatilmay qolgan toshlarda yozuv bo‘lmagan!” deydi... Xullas, hikmat izlaganga hikmatdir dunyo!

Amir Temur jismoniy kuchni shu kabi toshlardan olgan bo‘lsa bordir. Lekin ma’naviy kuchni avvalo, otasidan va pirlaridan olgan. Anglaganingizdek, keyingi manzil –

**“Dorut tilovat” majmuasi.**

Ushbu majmua XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida shakllangan bo‘lib, uning tarkibiga Ko‘k gumbaz masjidi, Shayx Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon maqbaralari hamda bir qator hujralar kiradi. Hatto, Samarqand va Qashqadaryo orasiga tushgan Taxtiqoracha dovonida manglayga kaft tirab qarasangiz ham ko‘zga yaqqol tashlanadigan Ko‘k gumbaz masjidi qadim Shahrisabzning faxri hisoblanadi. U 1434-1435-yillarda buyuk davlat arbobi va olim Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning buyrug‘i bilan qad rostlagan. Uning ro‘parasidagi Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi XIV asr oxirida barpo etilgan. “Zafarnoma”da shunday deyilgan: *“U (Amir Temur) qadrli shayx Shamsuddin Kulolga sidqidildan ixlos qilardi va uning muborak qabriga (ziyorat uchun) tez-tez borib turardi”.*

Undan avvalroq, ya’ni 1373-74-yillarda Amir Temur Shamsiddin Kulol qabri yoniga kichik gumbazli maqbara qurdirgan va otasining jasadini shu yerga ko‘chirtirgan. Unga tutash yana bir maqbara “Gumbazi Sayyidon” deb ataladi. Maqbara 1437-yilda Mirzo Ulug‘bek buyrug‘i bilan qurilgan. Ichkarida XV–XVII asrlarga oid, Termizdan kelgan sayyidlarga tegishli bir nechta qabr toshlari bor. Bu yerdan ziyoratchi va sayyohlarning qadami uzilmaydi.

**Amir Temurning birinchi qabri.**

Ha, eshitgan quloqqa g‘alati tuyulishi mumkin. Dastlab Sohibqiron Shahrisabzda o‘zi uchun hashamatli bino qurdirib, marmartoshdan sag‘ana ham tayyorlatgan edi. Biroq u to‘satdan vafot etgani sababli, Samarqandda, nabirasi Muhammad Sulton uchun barpo etilgan maqbaraga favqulodda holatda, ta’bir joiz bo‘lsa, maxfiy tarzda dafn etildi.

Keshdagi maqbaraga ilk bor, bolaligimda tushganimda vujudimni allaqanday qo‘rquv qurshagan. O‘shanda tuyganim zax va nam tuproq hidi hali ham shunday... Qadam bossangiz o‘zingizga eshitiladi. Olti tomonda muqaddas kalimalar bitilgan. Chirigan qadimiy zanjirlarni ushlasangiz, pashmakday uvalanib ketadi. Birozdan keyin havo yetmayotganini sezasiz. 1941-yilda bu qabrni ham ochib ko‘rishgan. Har ehtimolga qarshi, u-bu narsa topamiz deyish-gandir-da. Undan avvalroq bu dahma tasodifan topilgan. Shu mahallaning bolalaridan biri o‘yin avjida tasodifan chuqurga tushib ketadi. Uni qutqarib olishgunicha nimalarni o‘ylagan bo‘lsa bechora...

Dahma ustida Ahmad Yassaviy maqbarasiga birga bir o‘xshaydigan mahobatli maqbara bo‘lgan. Buning kelbatini Klavixo kiftini keltirib maqtagan joylari bor. Umuman olganda, Dor us-siyodat me’moriy majmuasi bir qator tarixiy yodgorliklardan tarkib topgan bo‘lib, ularning orasida eng asosiysi Jahongir maqbarasidir. Amir Temur to‘ng‘ich o‘g‘lini juda qattiq yaxshi ko‘rar, uning shijoatida o‘z bolaligini ko‘rardi. Jahongir Mirzoning o‘g‘li Muhammad Sulton ham ayni shunday mard va jasur jangchi bo‘lgan. Ikkisi ham asosiy taxt vorisi edi. Ikkisining yelkasiga ham ajal qushi juda erta qo‘ndi. Amir Temur taxtining uchinchi qonuniy da’vogari Pirmuhammad Sultonning ham qismati ayanchli yakun topgan. Muhammad Jahongir Mirzoning ikkinchi o‘g‘li bo‘lgan sulton otasining o‘limidan 40 kun o‘tgach tug‘ilgan. 1392-yilda Amir Temur G‘azna, Kobul, Zobuliston, Qandahor viloyati va Sind daryosigacha bo‘lgan yerlarni Pirmuhammad tasarrufiga topshirgan edi. U bobosi Amir Temurning bir necha harbiy yurishlarida, jumladan, Hindiston fathida qatnashgan. Amir Temur vafoti oldidan Pirmuhammadni o‘ziga valiahd deb e’lon qilgan. Biroq uni boshqa temuriy shahzodalar va hatto O‘trorda turgan qo‘shin boshliqlari ham tan olmagan... Xullas, shunday ulug‘ qismat sohiblarining qabri boshidamiz...

Maqbaraga tutash masjid hovlisida 1370-yillarda ekilgan chinorlar bor. Ular barcha temuriylar bilan bir havodan nafas olgan...

“Bizning qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing!” Ushbu ulug‘vor so‘zlar aynan Oqsaroy peshtoqiga yozilgan. U yigirma to‘rt yil mobaynida qurilgan va asrlar davomida sekin-sekin buzdirilgan... Agar hozirgacha aslicha saqlanganida edi, Markaziy Osiyodagi eng haybatli tarixiy bino bo‘lardi. Saroy Amir Temurning onasi Takina xotun xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Qurilishda va bezaklash ishlarida Xorazm, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo‘lgani saroy yozuvlarida saqlangan.

Bolaligimda dadam: “Bu saroyning g‘ishtlari Xorazmdan keltirilgan. Ikki qadam oraliqda askarlar saf tortib, bir-biriga g‘isht uzatishgan. Yerga tushib singanlari olinmagan. Shu tarzda Xorazmda tayyorlangan g‘ishtlar Shahrisabzgacha qo‘lma-qo‘l yetkazilgan. Uning qorishmasiga tuya suti va asal qo‘shilgan”, der edilar. Bu ma’lumot qanchalik to‘g‘riligini bilmadim, ammo keyingi voqea chinligi chin. Podsho hukumati Oqsaroy va qal’a devorlarini buzdirib, g‘ishtlaridan hukumat idoralari tiklarkan. Shunda tayyor ishchi kuchi sifatida mahalliy bolalardan foydalanarkan. Bir yong‘oqqa bitta g‘isht...

Inshoot avvaliga 73 metrlik bo‘lishi kerak edi. Shahrisabz sharqida Suvtushar sharsharasi bor. Uning balandligi ham shuncha. Aytishlaricha, Amir Temur shu sharshara balandligiga havas bilan termulib, Oqsaroyning bo‘yi ham shuncha bo‘lishini buyurgan ekan... Saroyning tom qismida kichik hovuz bo‘lgan. Unga Taxtiqoracha dovonidan qo‘rg‘oshin (ba’zan qamish, ba’zan sopol deyishadi) quvurchalar orqali suv tortilgan. Tepadan tushgan suv sharshara hosil qilgan. Davlat uchun muhim siyosiy gurunglar sharshara shovqini ostida o‘tgani uchun xufyalar ma’lumot ololmagan. Bundan tashqari, Oqsaroy va uning qurilishi haqida ming xil afsona to‘qilgan.

Saroyni bezashi kerak bo‘lgan ustaning to‘satdan qochib ketishi, malikaga oshiq naqqosh, qanot bog‘lab uchgan me’mor, eh-he, gapirsa gap ko‘p... Bino bitgach, asosiy bezakchi tepadan yerga tegar-tegmas zanjir tashlab, o‘zi ko‘zdan g‘oyib bo‘larkan. Oradan bir necha oy o‘tib, askarlar gunohkorni tutib kelarkan. Sohibqiron huzurida qo‘rquvdan dir-dir titrab turgan usta so‘nggi so‘z so‘rarkan... “Olampanoh, bir qoshiq qonimdan keching. Saroy qurilgach, bir necha quloch yerga cho‘kadi. Bezaklash ishlari bekor ketmasin deb ishni paysalga soldim. Ishonmasangiz, men qoldirib ketgan zanjirga qarang...” Usta haq bo‘lib chiqqan va mukofotlangan. Oqsaroy joylashgan hudud haqida ham afsonalar yuradi. Masalan, u yer avval botqoq va sershabada bo‘lgani uchun shu yerda qurilgani to‘g‘risida...

Asrlar davomida bu maskanda manaman degan hukmdorlarning toj kiyish marosimi o‘tkazilgan. 1707-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtog‘i ostida toj kiyib, taxtga o‘tirganligi peshtoqning o‘sha paytda butun ekanligidan darak beradi. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Oqsaroy Shahrisabzdagi kenagas beklari uchun ham qarorgoh vazifasini bajargan.

Podsho hukumati va sovetlar davrida mazkur muhtasham binoga juda ko‘p shikast yetkazilgan. To‘pga tutishgan, buzib, boshqa bino qurishga urinishlar bo‘lgan, ammo asrlar zarbiga dosh berib kelayotgan Oqsaroy hamon o‘z salobatini saqlab turibdi... Yaqin-yaqin yillargacha ham binoning chap qismidagi ravoqlari orqali yuqoriga ko‘tarilish mumkin edi. Lekin tarixiy binolarga munosabatimiz tufayli kirish to‘xtatildi.

Hay, davron o‘zgaryapti, munosabatimiz ham o‘zgarib qolar...

**Shahriyor SHAVKAT**

# VATAN OMON BO‘LSIN, VATAN TINCH BO‘LSIN!

Boshlanishi 1-sahifada.

Dastlabki kunlar aravakashlarga o‘xshab kiyinib, ularning yurish-turishini o‘zlashtirdim, “kasbiy atamalar”ini o‘rgandim. Bir necha kun arava tortdim, hammollik ham qildim. Birinchi kun yelkalarim zirqirab og‘ridi, keyin bo‘g‘imlarga o‘tdi. Kaftim qavarib ketadi, suvlanib achishadi, qadoqlar o‘rni yaraga aylanib, sekin tuzaladi. Ammo ish kutib turmaydi, joningiz og‘risa ham tirikchilik aravasini tortishga majbursiz.

Meni birinchi hayron qoldirgan narsa, u yerda na ism bor, na familiya. Ko‘ngilga nashtarday sanchilgan narsa yoshingizdan qat’i nazar sizni “Ey, arava!” deb chaqirishadi. Hatto, “Ey, aravakash!” ham deyishmas ekan. Odamga qanchalik og‘ir... Axir, insonning shaxsi bor. Shu o‘rinda aytib ketishim kerak: kim bo‘lishidan qat’i nazar, odamga odamiy



muomala qilish kerak.

Xullas, ish jarayonini boshdan o‘tkazgach, aravakashlarning ichki dunyosini o‘rganishga o‘tdim. Aravalar turadigan maydonchalar bo‘lardi, u yerda ular bilan gaplashib, sirini ola boshladim. Biri yaxshigina rubob chalar ekan-u, oilaviy sharoiti bo‘lmay shu yerga kelib qolgan. Biri abituriyent, kunduzi pul topib, kechqurun imtihonga tayyorlanadi. “Onamning mazasi yo‘q, operatsiya qildirishim kerak”, deydi biri.

Yoshi kattalari taqdirga tan bergan. Ammo yoshlarning ko‘zida umid uchquni porlaydi. Ular uchun arava tortish chorasizning chorasi, xolos. Bu endi chorak asr avvalgi gap.

**– Eng muhimi, ular halol yo‘lni tanlagan. Birovning moliga chang solmagan, aldamagan yoki tushkunlikka tushib, illatlar domiga tortilib ketmagan.**

– Juda ham to‘g‘ri aytdingiz. Og‘ir ish bo‘lsa ham, lekin halolligini, insonligini saqlab qolgan.

Material yig‘ish vaqti tugagach, bir necha hafta karaxt bo‘lib yurganman. Chunki ongim qarama-qarshi fikrlar jangiga, qalbim hissiyotlarning kuchli bo‘roni markaziga aylanib qolgandi. O‘shanda dunyoqarashimda katta evrilish sodir bo‘ldi. Hayotga real ko‘z bilan qarash, odamlarning orzu-armonlarini quyidan turib o‘rganish kerakligini tushundim. Salqin kabinetdan chiqmay qog‘oz qoralash jurnalistika emasligiga aqlim yetdi.

Maqolani qog‘ozga tushirish chog‘ida diqqatimni jamlash ham oson bo‘lmagan: ijara uy tashvishlari, yosh bolalarning yig‘isi, ochig‘i, bundoq o‘tirib yozgulik sharoit yo‘q. Oxiri, qog‘oz-qalamni ko‘tarib, ko‘p qavatli uy toloriga chiqdim. Zinaga o‘tirgancha bir nimalarni qoralashga harakat qildim. Ertalabki to‘rt bo‘ldi, lekin yoza olmayapman. Miyada bir o‘y: “Hozir tong otadi, muharrirga maqolani topshirmasam, keyin nima bo‘ladi? Boshqalar allaqachon vazifani bajarib, odatdagi mehnat postiga qaytdi. Bugun ham topshirmasam, xizmat safarim borib turgan sayoqlik deb baho olishi aniq”. Ijara uy ham omonatga o‘xshab qoldi. Ishqilib, o‘yindan o‘t chiqmasin: yanagi ish topguncha bozordagi qadrdonlarim safiga qaytaman shekilli… Keyin birdan yoza boshladim, xuddi ichimdan vulqon otilyapti. Bir vaqt soatga qarasam, sakkizga yaqinlashibdi. Zina pillapoyalarida 15–20 qog‘oz qoralama sochilib yotibdi…

O‘sha kuniyoq Bosh muharrir xonasiga chaqirdi: “Juda zo‘r narsa yozibsan. Buni qanday yozding? O‘zing yozdingmi axir?”, dedi. “Shunaqa desa ham bo‘ladi. O‘zim yozdim-u, lekin his-tuyg‘ular, fikrlar aravakash do‘stlarimniki. Hali hamma-sini qog‘ozga tushira olmadim”, dedim. “Qolgani sen uchun zaxira, kelgusi faoliyatingda kerak bo‘ladi”, dedi rahbar va rag‘batlantirdi.

Mana shu maqola men uchun jurnalistikada bir yo‘l ochib bergan. Keyin ham bir necha marta “kasbimni o‘zgartirdim”. Ana shunda Indira Gandining so‘zlari naqadar hayotiy ekaniga amin bo‘ldim: “Ahamiyatsiz kasb, kichkina odam yo‘q! Erkak yo ayol bo‘lishidan qat’i nazar, hamma o‘z ishini yaxshi bajarsa, butun mamlakat gullab-yashnaydi”.

**– Jurnalistikaga yangi avlod kirib kelmoqda. Endi zamon ularning oldiga Siz va sizning avloddan farqli masalalarni qo‘yyapti. Zamonaviy jurnalistlarning yutuq va kamchiliklariga qarashingizni bilmoqchi edik.**

– Jurnalistda ham shoir, rassom yo qo‘shiqchi kabi Xudo yuqtirgan iste’dod bo‘lishi kerak. Hozirgi jurnalistlarning kamchiliklarini aytish mumkin, lekin yutuqlari ham kam emas. Ulardagi shiddat, shijoatga havas qilaman. Yoshlarda qo‘rquv yo‘q, ko‘zi porlab turadi va so‘zini erkin ayta oladi. Vaholanki, ko‘p yillar so‘z erkinligi faqat so‘z bo‘lib keldi.

Oxirgi to‘qqiz-o‘n yillikda holat ijobiy tomonga keskin o‘zgardi. Buni ustoz jurnalistlar ham, xalqaro ekspertlar ham yozmoqda. Mana shu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanayotgan, qadriga yetayotgan yoshlarimizni olqishlaymiz. Zarur o‘rinlarda nazariy va amaliy yordamga tayyormiz.

Biroq jurnalistikani kasb emas, ko‘ngilxushi, havas biladigan toifalar ham bor. Ular na ilm oladi, na kasb etikasiga rioya qiladi, eng achinarlisi, qonunchilik bilan tanishmaydi. Bundaylar hamma sohada hamma zamonda uchragan. Ularni hayotning, amaliyotning o‘zi saralab beradi.

Havas qilsa arzigulik muhit bor ekan, uni asrash, kadrlarni tarbiyalash, malakasini oshirish, milliy jurnalistikani yangi bosqichga ko‘tarishga hammamiz mas’ulmiz. Ayniqsa, yoshlar masalasida muharrirlar, pedagoglarga ko‘proq yuk tushadi.

**– Fanda ham, ijodda ham taqqoslash, qiyoslash metodidan unumli foydalaniladi. Xorij va o‘zbek jurnalistikasining o‘ziga xos jihatlari nimada ko‘rinadi?**

– Bizda milliy mentalitet jurnalistikada ham o‘z aksini topgan. Xorijlik hamkasblarimizning ham o‘z uslublari bor.

Bizda “xorij jurnalistikasi” deyilsa, negadir faqat G‘arb jurnalistikasi tushuniladi. Holbuki, Yevropa yo Amerikadan boshqa, deylik yapon, hind, xitoy, arab jurnalistikasi ham bor. G‘arb jurnalistlari ochiq gapiradi, shunday o‘rinlari borki, bizning auditoriya uchun bu pardasiz kontent hisoblanadi. Xitoy jurnalistlarida baribir sharqona andisha va obrazli tafakkur elementlari seziladi. Tanqidiy mavzularni ko‘tarishda ochiqchasiga gapirmaydi, o‘ziga xos uslub va ifodalarni qo‘llaydi, bu muammoni shunchaki bildirib qo‘ymay, yechimiga nisbatan ta’sirchanlikni oshiradi. Bu jur’atsizlik emas, bu Sharq.

O‘zbek jurnalistikasining ildizlari asrlar davomida rivojlangan, tarixiy ildizlariga ega. Bugun biz tushunadigan jurnalistikani jadid bobolarimiz boshlab bergan bo‘lsa-da, ungacha bo‘lgan davrda ham axborot olish va uzatish, mavjud muammolarni hukmdorlarga, saroy chiqargan qarorlarni xalqqa yetkazish bo‘yicha murakkab sxema ishlagan mintaqamizda. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy publitsistikasini o‘qisangiz, ular boshidanoq tezkorlik, xolislik, aniqlik, mas’uliyat bilan birga milliylikni ham tamoyil sifatida qo‘llagan.

Gap kelganda aytib qo‘yish kerak: hamma zamonlarda ham axborot oqimini to‘g‘ri boshqara olgan hukmdorlar buyuk davlat qura olgan. Amir Temur davrida Yer yuzida bobomiz kabi xabardor va ogoh zot bo‘lmagan. Sohibqiron saltanatida axborot olish va tarqatishning mukammal tizimini yo‘lga qo‘ya olgani uchun ham 30 ga yaqin davlatni birlashtirgan imperiyani bunyod etgan, saqlab turgan.

**– Bugun “Yangi O‘zbekiston” gazetasi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining ko‘zgusi hisoblanadi. Shu bilan birga yangiliklar taqdim etishdan to‘xtagani yo‘q. Xususan, gazetada “Tamaddun tafakkuri” ilovasining berilayotgani so‘zimiz isbotidir.**

– Darhaqiqat, gazetamiz respublika miqyosidagi eng yosh ijtimoiy-siyosiy gazeta. Ushbu tahririyat tarkibidagi “Pravda Vostoka” gazetasi esa respublika miqyosidagi eng “otaxon” nashr hisoblanadi. Ikkinchi aprel kuni 109 yilligini nishonladik. Bizda keksalikning tajribasi, yoshlikning g‘ayrati birlashgan.

Aytishim mumkinki, biz yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tarixiy islohotlarni to‘liq yoritib ulgurmayapmiz. Qarang, har kuni chop etilsak ham o‘zgarishlar shu qadar keng qanot yozdiki, sahifalarimiz qulochi yetmay qoldi. Ayni shu sabab media olamiga ham kirib boryapmiz.

Savolga qaytsak, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi bitta mavzu emas. Uning har bir qarichi, har bir eksponati, har bir naqshi bir yangilik, bir tarix. Nafaqat respublika, balki jahon miqyosida e’tirof etilayotgan markaz bilan xalqimizni yaqindan tanishtirish uchun amaldagi gazeta imkoniyati yetarli bo‘lmay qoldi. Shuning uchun ham siz eslagan loyihani yo‘lga qo‘ydik.

Jamoamiz bilan sayohatga borar ekanmiz, bir necha kun o‘zimizga kela olmadik. Har bir ijodkorda Markaz haqida aytadigan so‘zi, odamlarga yetkazish zarur deb hisoblagan topilmasi bor. Ularni gazetaning reja-dasturi to‘liq rag‘batlantira olmasdi. Shuning uchun gazeta ichida gazeta bo‘lgan “Tamaddun tafakkuri” ilovasini chiqara boshladik. Har juma kuni ushbu ilovani o‘qishlari mumkin mushtariylarimiz.

**– Bularning barchasi bevosita ilmga bog‘liq. So‘nggi yillarda adiblar, shoirlar, jurnalistlarning ilmiy darajaga erishish ko‘rsatkichi ortib bormoqda. Siz ham filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorisiz. Izlanishingiz qaysi mavzuda edi?**

– Ilmiy ishimni 15 yil ilgari boshlagandim. O‘sha paytlar hozirgidek “Matbuot o‘ladi! Gazeta-jurnallarning umri tugadi!” degan iddaolar bahslarda o‘rtaga tashlanardi. Matbuotga televizionni qarshi qo‘yishardi. Bugun teleradioga Internetni zidlashtirishyapti. Umuman, ommaviy axborot vositalarini qaysidiri yo‘qolib ketadi, qaysidiri kuchli, qaysidiri kuchsiz deb bir-biriga qarshi qo‘yishning o‘zi juda noto‘g‘ri ish. Biz yo‘qotish emas, rivojlantirish haqida o‘ylashimiz kerak.

Shundan kelib chiqib, respublikamizda, keyin bilsam birinchi ekan, media konvergensiya mavzusini dissertatsiya mavzusi qilib oldim. Bu bosma nashrlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un rivojlanishi.

Masalan, gazetalar endi faqat qog‘oz shakli bilan cheklanishi kerakmas. Mobil ilovasini yaratish, saytini ochish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalarini yuritish kerak. Ana shunda auditoriya ham kengayadi, bosma nashr sifatidagi yashovchanligi ham oshadi. Bu masala Amerika Qo‘shma Shtatlari, Xitoy, Rossiya, Yevropa davlatlari tajribasida qanday yechim topgani bilan qiziqdim. Keyin bizda ham buni joriy qilish va samarali amalga oshirish mumkin degan qarorga keldim. Buni ilmiy tadqiqot orqali o‘rganib, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini yoqladim.

Biz “Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka” gazetasini o‘qiydigan odamlarni juda yaxshi ko‘ramiz. Ba’zan rasmiy nashr maqomida bo‘lgani uchun uslubi o‘ta rasmiy va quruq deyishadi. Aytamanki, avval bir o‘qib ko‘ring, biz materiallarni xalq ruhi va tiliga imkon qadar uyg‘un berishga harakat qilamiz. Tezkor axborotlarni mediamakonda ulashib boramiz, gazetada asosiy urg‘uni tahlilga qaratganmiz.

Har bir sonimizda maqolaning yakuniga QR-kodlar qo‘yamiz. Bu orqali yozmani bevosita mobil qurilmangizga yuklab olib, o‘zbek va qoraqalpoq tilida o‘qiysiz. Aytish joizki, birinchilar qatorida bizning tahririyat qoraqalpoq tilida ham material berishga o‘tdi. Saytimiz esa o‘zbek, rus, ingliz, qoraqalpoq, qozoq va tojik tillarida yuritiladi. Hozir yana boshqa tillar ustida ishlayapmiz. Shu sabab bizni jahon maydonida ham kuzatib borishadi.

Ko‘ryapsizmi, gazetaning umri o‘tdi deb, shoshilinch hukm o‘qimaslik kerak. U ham taraqqiy etmoqda.

**– Yaqinda chop etilgan “Yangi O‘zbekiston orzusi” kitobingiz ziyolilar va o‘quvchilar tomonidan iliq qarshi olindi. Kitobning yaratilish tarixi bilan o‘rtoqlashsangiz.**

– Kitob O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kamina xodimingiz bergan savollarga javobi aks etgan **“Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”** sarlavhali intervyu bilan ochilgan.

Shuningdek, kitobdan rang-barang mavzulardagi suhbat va maqolalar o‘rin olgan. Suhbatlarimiz qaysi mavzuda bo‘lmasin, aynan soha egalarining, mas’ullarning fikr-mulohazalarini o‘zida jamlagan.

Maqsad: muhtaram Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston g‘oyasini e’lon qilganlaridan keyin yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayoni, ularning samaradorligi, shu bilan birga turli jabhalardagi yangilanishlarni bevosita kuzatib, shuni publitsistik asarlar orqali muhrlash.

Yaqinda talabalar kelib, “Kitobingizni o‘qib-o‘rgandik. Bu bizga o‘quv qo‘llanma sifatida ham kerak bo‘lar ekan”, deyishdi. Xursand bo‘ldim. Chunki, albatta, bu yerda muallifning mahorati bir tomondir, lekin u yerdagi faktlar, dalillar, tahlillar juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ularni o‘zining tajribasini orttirishda, professional salohiyatining yuksalishida katta ahamiyat kasb etadi, deb o‘ylayman.

**– Yaxshi kitob yozish uchun yaxshi asarlarni o‘qish kerak degan gap bor. Shu kunlarda nimani mutolaa qilyapsiz?**

– Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” maqolasini o‘qiyapman. 1919-yilda yozilgan maqola bir risola, kitobning zalvoriga ega. Bunda jamiyatning rivojlanish tendensiyalari qanday bo‘lishi va uni qanday bo‘hronlar chayqatishi, mamlakat rivojlanishi qanday kechishi go‘zal ifodalab berilgan. O‘qishga kirishdim-u, xuddi Abdurauf Fitrat bugungi dunyo manzarasini ko‘rib, bilib yozganday taassurot uyg‘ondi.

Chunki davrlar o‘zgaradi, texnologiyalar o‘zgaradi. Lekin jamiyatning rivojlanish tendensiyalari va muammolari dolzarbligicha qolaveradi. Shuning uchun tarixni qanchalik yaxshi o‘rgansak, shunchalik foyda ekanligiga o‘zimiz amin bo‘lyapmiz.

**– Ustoz, erkin va samimiy muloqot uchun rahmat! Mushtariylarimizga dilso‘zlaringiz bo‘lsa, marhamat.**

– Eng toza tilagim – Vatan omon bo‘lsin, Vatan tinch bo‘lsin! Biz uchun tinchlik quyosh chiqishi, fasllar almashishi kabi tabiiy jarayon bo‘lib tuyuladi. Ammo uning ortida adoqsiz mehnat-mashaqqatlar turganini har doim ham anglamaymiz. Shu ma’noda Davlat rahbari zimmasiga qanchalik buyuk yuk tushayotganini tasavvur qilyapsizmi?! Ayniqsa, Prezidentimiz O‘zbekistonda doimiy tinchlik, osoyishtalik bo‘lishi uchun katta e’tibor qaratayotganlari va bu yo‘ldagi muvaffaqiyatlaridan hammamizning ko‘nglimiz to‘q. Lekin buni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

Shuning uchun, albatta, xalqimizga, yurtimizga tinchlik, omonlik, shu ma’noda yuksalish va har birimizning xonadonimizga fayz-u barokat, baxt-u saodat tilayman.

**Suhbatdosh:**
**Zarnigor IBROHIMOVA**



# Ko‘p rahmat, Oydin opa!

Boshlanishi 1-sahifada.

Kuz edi, Oydin Abdullayevaning juda esda qolarli nom va muqova bilan musiqiy to‘plami chiqdi – “Bir ishq bo‘lsa”... Oradan ko‘p o‘tmay, yuqorida aytganimdek, uning konsertidan bahra olish nasib etdi. Musiqa ilmining hali oddiy maktabida o‘qiydigan o‘quvchisidan vazirlargacha – hamma keldi bu konsertga. Tinglovchilar rang-barangligi, ya’ni ularning faoliyat yuritadigan soha turlari jug‘rofiyasi keng bo‘ldi. Kelganlar orasida adabiyot ahlini, rassomlarni, iqtisodchilar-u me’morlarni ham ko‘rdim. “An’ana”ga ko‘ra bunday bo‘lmasligi – zal kompozitorning shogirdlari hamda yaqinlari bilan to‘lishi kerak edi… Bu – men uchun ijodiy oqshom bergan ilk hayrat bo‘ldi.

Dastur “Yangi O‘zbekiston” uvertyurasi bilan boshlandi. Asarni o‘zbekona ruh va kayfiyat bilan tingladim; o‘zbekligim yodimga tushdi... Milliy ohanglarga burkangan doira zarblari orasidan tanbur navolari quloqqa chalinadi; skripka va damli cholg‘ular jo‘rligida Vatanning ming bir surati betakror ranglarda ko‘z oldimizda jilolanadi; xayol, yurak va nafas parvoz etadi...

Vatan manzaralari, Vatan aro bosib o‘tgan yo‘llaringiz xotirada bir-bir tiklana boshlaydi – shonli tarix va farovon kelajak har qachongidan aniq gavdalanadi, ularning tovushi tugul, hatto hidi ham seziladi. Birdan sato tovushi qulog‘ingizga chalinadi-yu, onangiz yopgan non, kosa to‘la, hidi odamni gangitadigan, he-ech me’daga tegmaydigan qaymoq ifori xotirani bir aniq shaklga, muayyan organ ko‘rinishiga keltiradi va uning ham eti junjikadi; tarona davom etadi!

Olqishlar yangradi. Menimcha, o‘sha kaftlaridan o‘t chaqnaganlarning bari xuddi men kabi nafaqat orkestr va uning ellikboshisi – Kamoliddin O‘rinboyevga, balki bugungi kunga, uning berayotgan imkoniyatlari va bunyod etayotgan ertasi uchun ham qarsak chalishdi. Vatan uchun qarsaklar chalindi! Uch daqiqa navo tinglab, bir daqiqa alqov aytdik, do‘stlar!

Salom-alikdan so‘ng davraboshi Nodira Omonova dasturni rasman ochib berish uchun Oydin Abdullayevaning ustozi, taniqli kompozitor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor Avaz Mansurovni davraga chorladi. Avaz Mansurov ko‘pchilik e’tibor qaratmagan bir jihatga – Oydin Abdullayeva va Kamoliddin O‘rinboyevning o‘ziga xos hamohangligiga urg‘u berdi. Zabardast pedagog bu ikki ijodkorning bir yoqadan bosh chiqarib, musiqa san’atini yangi darajaga chiqarish yo‘lidagi harakatlari va izlanishlarini yangi zamon jadidligiga, yangi zamon daholigiga mengzadi – “Bugungi konsert ikki ijodiy hodisaning o‘ziga xos tandemi”, deya ta’rif berdi.

Navbat kompozitorning “Jaman Shig‘anaq” nomli uchinchi simfoniyasiga berildi. Qoraqalpoq milliy musiqiy motivlari asosida insonning eng oliy xislati yoxud qobiliyati – xotira, odam hamisha baxtga muhabbat orqali yetishishi va bu baxtni u eng avvalo o‘z Vatanida tuya olishi kabi haqiqatni tarannum etuvchi asar nay nolalari bilan boshlandi. Murakkab polifonik, ya’ni ko‘p qatlamli ohanglar silsilasi bir vaqtning o‘zida ham yorga, ham Vatanga va umumiy ma’noda borliqqa – Tangri yaratgan kurrai zaminga, irmoqlarga, tog‘-toshlarga, qaqroq o‘zanlar-u ulardan ayrilgan daryolarga qaytishdan so‘zladi.

“Jaman Shig‘anaq” harorat o‘yinlariga ham boy bo‘ldi. Muttasil nayga murojaat qilgan bu kuy dadil hamda yovqur ruh bilan vujudingizda allaqanday hissiy isyonni qo‘zg‘atadi-da, yana o‘zining dardli motivi bilan ohista allalaydi – harorat bir ko‘tariladi, bir tushadi. Oxirida esa bari portlaydi! Xuddi yaxshi yozilgan she’rdagi kabi.

Mag‘ribdan Mashriqqacha turli millat va elatlar turli zamonlarda o‘zlarining turmush tarzi, qadriyatlari va og‘riqlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos musiqiy yo‘llarini yaratishdi. Intervyularining birida Abduhoshim Ismoilov: “Hech qaysi millat bizning maqomlarimizni jilovlay olmaydi, ammo biz ularning musiqasini ijro eta olamiz”, degan edi. Darhaqiqat, shunday! Bir misol: Harvard universiteti olimlari xalqlar musiqani qanday idrok qilishini tadqiq etgan. O‘shanda turli millat vakillariga har xil ashulalar qo‘yib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yevropa xalqlari ohanglarni faqat ikkiga: minor va major – g‘amgin va quvnoqqa bo‘lgan. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo vakillari esa navolarni iqrorga, izhorga, tasalli-yu g‘azab kabi ko‘plab turlarga ajratib bergan ekan...

Oydin Abdullayeva o‘zining to‘rtinchi simfoniyasi – “Zebo pari” orqali didni asliyatga, an’anaga, go‘zallikka va yuksaklikka qaytarishga bel bog‘lagan ekan. Masalan, shaxsan men uchun Xudoyberdi hofiz, uning faoliyati hamda Xudoyorxon saroyida tutgan mavqeyi va yaratgan nodir avjlari notanish edi, bu asardan nafaqat musiqiy, balki ham tarixiy, ham ma’naviy saboq oldim. Buning uchun kompozitorga minnatdorlik izhor etaman va ta’zim bajo keltiraman! Kompozitorning esda qolarli dastxati yaqqol sezilib turadigan mazkur asarda orkestr ijrochilarning mahorati ham alohida tahsinga sazovor, ayniqsa, ikki naychi va qo‘shnaychi yigitlarning...

Dastur yakunidagi “Trombon va orkestr uchun konsert” premyerasi, shaksiz, esda qolarli kulminatsiyaga aylandi. Sahnaga issiq istarali Burhon Sultonov chiqib asarni ijro eta boshlaganida, menga hamroh bo‘lib kelgan Alisher aka Kazakbayev: “Trombon o‘zbekcha gapirib yubordi-ya”, deya hayratini yashirmadi... O‘ziga xos qochirimlar, orkestrning favqulodda baland pardalar bilan qo‘zg‘alishi hamda epik ko‘chishlar bilan asar musiqa oqshomiga mantiqiy va hayajonli yakun yasadi.

Olqishlar! Gullar! Kimdir tabriklashga, yana kimdir rasmga tushishga ilhaq! Hamma kompozitorni ijodiy zafar bilan samimiy muborak etdi, ko‘p iliq so‘zlar aytildi. Men-chi? Kamina uchun konsert hanuz davom etmoqda, qalbimda oqshom navolari mudom yangrab turibdi. Ko‘p rahmat, Oydin opa! Bravo!

**Akmaljon YO‘LDOSHEV**

TA’ZIYA

# TEATRNING DONO AYAJONI EDI

**O‘zbek san’ati og‘ir judolikka uchradi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, “Do‘stlik” ordeni sohibasi Dono Boboxonovaning yuragi 80 yoshida urishdan to‘xtadi.**



Dono Boboxonova (Danisiya Dayanovna Boboxonova) 1946-yil 20-noyabrda tug‘ilgan. 1970-yilda Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti)ni tamomlagan.

Aktyorlik faoliyatini 1968-yilda “Yosh gvardiya” teatridan boshlagan. 1990-yillardan kino sohasiga kirib kelgan.

Aktrisa “Bozor ko‘rmagan yigit” kinonovellasi orqali keng xalq ommasi e’tiboriga tushgan. Keyingi davrda “Chol va nabira”, “Tilim qursin”, “Ulfatlar-2”, “Tilla buva”, “Dadamning sovg‘asi”, “Vafodorim”, “Kuch birlikda”, “Berlin-Oqqo‘rg‘on” kabi filmlardagi rollari bilan tomoshabinlar yodida o‘chmas iz qoldirdi.

So‘nggi yillarda Dono Boboxonova O‘zbek davlat drama teatri sahnasida qo‘yilgan “Ayajonlarim”, “Romeo va Julietta”, “Ey, biz bormiz!..” kabi milliy va jahon dramaturgiyasi durdonalarida yaratgan obrazlari bilan san’at shaydolari mehrini qozonib kelayotgan edi.

Iste’dodli inson barcha sohada iste’dodli, deganlaridek aktrisa nazm va nasrda ham barakali qalam tebratganiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbekistonda teatr va kino san’atini targ‘ib qilish, madaniyat sohasini rivojlantirishda Dono Boboxonovaning xizmatlari salmoqlidir. U nafaqat san’atkor, balki fidoyi vatanvarpar sifatida respublikamiz bo‘ylab o‘tkaziladigan tadbir va uchrashuvlarda faol ishtirok etib keldi. Teatrga ilk qadam qo‘yayotgan yoshlarni tarbiyalash, ularga hayot va san’at sirlarini o‘rgatishda ham u kishining sabri va mahorati, ustozlik salohiyati e’tirofga loyiq.

Donoxon opa kamdan kam san’atkorga nasib qiladigan baxtga – uch avlod tomoshabini olqishiga sazovor bo‘lish sharafiga muyassar bo‘ldi. Bugun ko‘p millionli xalqimiz orasida uni tanimagan, rollaridan bexabar insonni topish amrimahol. Bu ham kasbga sadoqat va muhabbatning mevasi, adolatli siylovidir.

San’atkorning xizmatlari Mustaqillik davrida munosib baholandi.

Atoqli san’atkor, mehridaryo murabbiy Dono Boboxonovaning yorqin siymosi xalq xotirasida hamda san’at tarixida hamma vaqt saqlanib qoladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi,**
**“Jadid” gazetasi tahririyati**

MOZIYDAN SADO

# “BOR, TOVOG‘IM... KEL, YAROG‘IM!”

**“Bor tovog‘im, kel tovog‘im” matali ming yillar avval yaralib, tor ma’noda qo‘ni-qo‘shnilar, keng ma’noda turli davrlarda saltanatlarning bir-birlari bilan o‘zaro bordi-keldilari, ya’ni savdo aylanmasini anglatadi. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan o‘lkamiz necha asrlar Sharq va G‘arbni iqtisodiy bog‘lab turgan ko‘prik vazifasini o‘tagani ortida ham shu munosabatlar yotibdi. Ammo...**



1840-yilda Angliyada paxtani chigitidan ajratadigan “Jin” mashinasi ixtiro qilinadi. Bu mashina yuzta ayolning bir kunlik ishini bir soatda bajara olardi. Uskunaning yaratilishi to‘qimachilik sanoatiga zarur xomashyoga talabni nihoyatda kuchaytirib yubordi. Angliya fabrikantlari paxta yetishtiriladigan Osiyo va Afrikadagi mamlakatlarni nishonga oldi – o‘sha davrdan boshlab bu ikki qit’ada Angliyaning mustamlakalari soni osha bordi. Bu yoqda chor hukumati yurtimizni zabt etish rejalarini oshkora ishlab chiqishga kirishdi. Mustamlakachilarning ishtahasi shu darajada ochildiki, mintaqamizdan chiqadigan mo‘l-ko‘l xomashyoni ko‘p va arzonga olish orzusi kundan kunga “bolalab” boraverdi. Ko‘p va arzon olishning birgina yo‘li bor edi – xonliklarni bosib olish. Aks holda, xonliklar xomashyoni o‘zlarini qoniqtirgan baholarda sotishar, ayrim yillari narx ustida kelishmovchilik sabab paxta kam chiqarilardi.

E’tiboringizga bir hujjatni havola qilamiz. General-mayor Verigin 1826-yil 1-fevralda “Bizning savdomizni O‘rta Osiyoda keng yoyish va uning xavfsizligini ta’minlashning yagona vositasi sifatida Xivani egallash zarurligi haqidagi fikrning qisqacha bayoni” nomli xatini imperator Nikolay birinchiga topshiradi. Verigin xatda mintaqada rus savdosining rivojlanishi, rus sanoat egalari va savdogarlari uchun qulay sharoitning yo‘qligi, ko‘pincha savdo karvonlarining talanishini qayd qilib o‘tarkan, “bu masalada qurol kuchi bilan Rossiyaning obro‘sini ko‘tarish”ni taklif qiladi. U yana xatida: “Inglizlarning Tatariston chegaralariga yaqinlashishi tezda raqobatchilar o‘rtasida xavf tug‘diradi”, degan xulosaga keladi.

Veregin inglizlardan behuda xavfsiramagan. Bu vaqtda inglizlar Afg‘onistonga bostirib kirgandi. Markaziy Osiyoda ingliz kapitalizmining ta’siri sezilarli darajada o‘sgandi. Inglizlar nisbatan arzon va sifatli tovarlarini uch xonlik bozorlariga keltirishni ko‘paytirgan va bir qator sohalarda rus tovarlarini mahalliy bozorlardan siqib chiqargandi. Chor ma’murlarning barcha xatti-harakatlari (hatto o‘zaro savdoda ham) tagida yotgan yovuz niyatlari birgina Veregin xatida emas, Nikolay birinchiga yuborilgan boshqa xatlarda ham aks etgan. Hatto, F.Dostoyevskiy “O‘rta Osiyoni tezroq bosib olish” taklifi bilan podshohga uch marta xat yozgan. Bu xatlar, iltijolar beiz ketmaydi va 1865-yilda general Chernyayevning qo‘shini Qo‘qon xonligi chegarasini buzib o‘tadi.



> **Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.**
>
> **Jon JAK RUSSO**

Qadim Turkistonni bir yarim asr qullikka solgan raqamlarga yuzlanamiz: 1861-yilda Rusiyaga Markaziy Osiyodan 152 ming pud paxta keltirilgan bo‘lsa, 1862-yili bu ko‘rsatkich 405 ming pudga yetgan. Ikki yildan so‘ng esa 704 ming pud paxta xarid qilingan. Uch yilda deyarli olti karra o‘sish. Shu muddatda Yevropa bozorlaridan olib kelingan paxta keskin kamaygan. Masalan, 1861-yilda 2491 ming pud paxta keltirilgan bo‘lsa, 1863-yilda bu raqam 587 ming pudga tushgan. Deyarli, besh marta kam! Chor hukumati uchun Turkistondan paxta olish samarali bo‘lgani ushbu qiyoslamada ko‘rinadi.

Uch xonlikda yetishtirilgan paxtani Chor Rusiyasiga olib borayotgan savdogarlar ham anoyi emasdi. Ular talab oshganini ko‘rib, narxini ham ko‘targan. Masalan, 1861-yili Moskva va Nijniy Novgorod bozorlarida bir pud paxta 4-5 so‘mdan sotilgan bo‘lsa, 1863-yilga kelib, bir pudi 22-23 so‘mdan pullangan. Shuncha miqdor paxta tuya karvonlarida ming mashaqqat bilan olib borilgani alohida mavzu. Paxta tannarxining bu qadar keskin oshishi qayta ishlovchi fabrikalarni inqiroz ostonasiga olib kelgan. 1860-yilda ishlab turgan 57 ta yigiruv fabrikasidan 1863-yilga kelib 35 tagina, 659 to‘qimachilik fabrikasidan esa 338 tasigina qolgan. Paxta narxining o‘sishi Yevropa paxtasidan voz kechib, nazarlarida “arzon va sifatli” deb bilgan Turkiston paxtasiga ko‘z tikkan chorizm sanoatchilari va siyosatchilariga yoqmadi. Ular bozor siyosatini tan olmadi – g‘irromlik yo‘liga o‘tdi. Xonlarga yuborilgan turli sovg‘alar ish bermagach... endi hosildor yerlarga ega o‘lkani bosib olish tashvishiga tushdi.

XX-asrning birinchi yarmi oxiri va ikkinchi yarmida Rusiyaning katta shaharlarida chop qilinadigan gazetalar taxlamlarini varaqlasangiz, Markaziy Osiyoni tezroq bosib olish haqida turli darajadagi kishilarning maqolalariga ko‘zingiz tushadi. Hukmron doiraning ayrim vakillari, ayniqsa, diplomatlar bu boradagi reja va loyihalarini uyalmay-netmay bayon qilgan. Ayrim mualliflar bu ishimizga dunyo hamjamiyati qanday qaraydi, degan mulohazaga borgan, ammo ko‘pchilik ovozlar ularning saslarini bosib ketgan. Matbuotda bu masala bejizga ko‘tarilmagan. Shunday targ‘ibot orqali jamiyat katta urushga hozirlangan. Agarda dunyo hamjamiyati bu borada norozilik bildirsa, bahonalari: “Buni podsho emas, oddiy xalq istayapti!” deyish kerak bo‘lgan.

Rusiya bozorlariga paxtani mahalliy savdogarlar olib borgan va ular rus tilini yaxshi bilgan. Yil davomida savdo yarmarkalarida savdogarlarning doimiy vakillari ishlagan. Savdogarlar nahotki o‘sha gazetalarni o‘qimagan bo‘lsa? O‘z yurtlarini bosib olish haqidagi chaqiriqlar quloqlariga sira chalinmagan bo‘lsa? O‘qigan, eshitgan bo‘lsa, nega bu haqda xonlarni ogohlantirishmadi? Nega bu yurtdan oyoqlarini tortishmadi? Agarda bu haqda xonlarga yetkazilgan bo‘lsa-yu, ular “otameros” maishati va bir-birini g‘ajishdan bo‘shamagan bo‘lsa... kimni ayblashimiz kerak? Gumrohlik bundan ortiq bo‘ladimi!..

Istiqlol zamonasiga kelib, tabiiy boyliklarga ega, serhosil yerlarida barcha turdagi oziq-ovqat va yengil sanoat uchun zarur texnik ekinlarni jahoniy andozalarda yetishtirayotgan tadbirkorlarimiz dunyoning barcha davlatlari bilan teng huquqli savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yishgani, bunga davlatimiz olib borayotgan global siyosat mustahkam poydevor yaratgani qadim “Bor tovog‘im – kel tovog‘im” mataliga ikkinchi umr bag‘ishlaganini alohida qayd qilish kerak.

**Ro‘zimboy HASAN**

OLAM OLIMI

# KENGLIK KASHSHOFLARI




## E’TIROF

Zamonaviy kimyo va materialshunoslik rivojida metall-organik karkaslar alohida o‘rin tutadi. Noyob molekulyar tuzilmalar gazlarni saqlash, filtrlash va ajratish kabi muhim vazifalarni bajara oladi. Ular kimyo sohasida yangi bosqichni boshlab berdi va global ekologik muammolarni hal qilishda katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlari uchun Richard Robson, Susumu Kitagava va Omar Yagi 2025-yilda kimyo bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

## TADQIQOT

Richard Robson ilmiy faoliyatini 1980-yillar oxirida boshlab, molekulyar arxitekturani yaratish ustida ish olib bordi. U birinchi bo‘lib tartiblangan va boshqariladigan g‘ovak tuzilmalarni sintez qilish g‘oyasini ilgari surdi. Susumu Kitagava esa gazlarni saqlash va ajratish imkoniyatiga ega bo‘lgan poroz materiallar xususiyatlarini chuqur o‘rgandi. Omar Yagi ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqib, metall-organik karkaslarning keng turlarini yaratish va ularni amaliy qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqdi.

Olimlarning har biri mustaqil ravishda izlanish olib borgan bo‘lsalar-da, ularning tadqiqotlari bir-birini to‘ldirib, butun bir yangi ilmiy yo‘nalishni shakllantirdi.

## MOHIYATI

Ilmiy ish o‘ta xos doirada bo‘lib, faqat mutaxassislargina uni anglab yeta oladi. Fan tilida aytganda, metall-organik karkaslar – bu metall ionlari va organik molekulalardan tashkil topgan uch o‘lchamli tuzilmalar bo‘lib, ularda juda katta bo‘shliqlar mavjud. Bu bo‘shliqlar turli gazlar va moddalarni o‘zida saqlay oladi.

Qiziq jihati shundaki, juda kichik hajmdagi material juda katta sirt maydoniga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, qand bo‘lagiga teng materialning umumiy yuzasi futbol maydoniga teng keladi.

Bu xususiyat ularni quyidagi sohalarda nihoyatda samarali qiladi: karbonat angidridni ushlash, havodan suv yig‘ish, zaharli gazlarni saqlash, kimyoviy moddalarni ajratish.

Metall-organik karkaslar bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, zaharli chiqindilarni qayta ishlash kabi muammolarni hal qilishda qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, ular dorilar qoldiqlarini parchalashda ham samarali hisoblanib, tibbiyot vositasida insoniyatga katta naf keltiradi.

**Jasmina ISROIL tayyorladi.**

JAHON AYVONIDA

## EYFEL ZINAPOYASI SOTUVDA

**Parij ramzi bo‘lgan va har yili taxminan 7 million kishi ziyorat qiladigan Eyfel minorasi asl zinapoyasining bir qismi sotuvga qo‘yildi. Zinapoya bo‘lagi 140 ming dollardan 175 ming dollargacha narxda sotilishi kutilmoqda.**



Deyarli bir asr davomida tashrif buyuruvchilar monument cho‘qqisiga shu zinapoyalar orqali ko‘tarilishgan, biroq 1983-yildagi kapital ta’mirdan so‘ng zinapoyaning ayrim qismlari buzib tashlanib, o‘rniga liftlar o‘rnatilgan.

## MAKTABDA OTISHMA


**Turkiya janubi-sharqidagi Kahramanmarash shahridagi o‘rta maktabda otishma yuz berdi, deb xabar qilmoqda CNN Turk.**



NTV telekanali kamida 4 kishi halok bo‘lgani va 20 kishi yaralangani haqida xabar bermoqda. Kahramanmarash gubernatori Mukarrem Unlyuyerning ma’lum qilishicha, halok bo‘lganlarning biri o‘qituvchi, uch nafari maktab o‘quvchilaridir. Hujum qilgan shaxs sakkizinchi sinf o‘quvchisi bo‘lgan.

## ROSSIYA TOVON TO‘LAYDI

**Rossiya va Ozarbayjon Tashqi ishlar vazirliklari Aqtau yaqinida sodir bo‘lgan AZAL samolyoti halokati tufayli vujudga kelgan nizo hal etilganini ma’lum qildi.**




Tomonlar halokat sababchisi Rossiya degan to‘xtamga kelib, havo hujumidan mudofaa tizimi aybdorligini tan olgan holda, jabrlanganlar va halok bo‘lganlarning oilalariga federatsiya tovon puli to‘lashiga kelishib oldi.

## BEDARAK MUHOJIRLAR



**Bangladesh hududidan suzib chiqqan kema Andaman dengizida cho‘kib ketdi. Voqea oqibatida 250 dan ortiq muhojir bedarak yo‘qolgan. Bu haqda BMTning qochqinlar va migratsiya bo‘yicha agentligi xabar berdi.**

Qutqaruvchilar Bangladesh bayrog‘i ostidagi kema qoldiqlari va bochkalarga yopishib jon saqlagan 9 nafar migrantni qutqarib qolgan.

MILLAT FIDOYILARI

# UCHSIZ KALAVA

**Muhammadjon Avazjonov o‘zbek tekstil sanoatining ilk mashinavoriy urchug‘ini aylantirgan mutaxassislardan hisoblanadi. U 1905-yil 2-may kuni Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Otasi o‘z davrida Buxoro amirligining martabali shaxslaridan bo‘lib, 1912–1918-yillari Chorjo‘y bojxonasida mas’ul lavozimda ishlagan. Muhammadjon Buxoro shahrida eski va yangi usul maktablarida o‘qidi. So‘ng madrasa ta’limini olib, arab, fors tillarini o‘zlashtirdi. Bolaligidan amakivachchalari Musojon va Muxtor Saidjonov (BXSR hukumatida yirik mansablarda ishlagan)lar orqali jadid taraqqiyparvarlari g‘oyalari ta’sirida ulg‘aydi. Ana shu qo‘llab-quvvatlov va yetovlar uni an’anaviy ta’lim doirasidagina qolib ketmasdan, rus tilini o‘rganishga va Yevropa madaniy muhiti bilan tanishishga undadi.**



1922-yildan Muhammadjon Avazjonov hayotida burilish boshlandi. “Ko‘mak” tashkiloti uni iqtidorli yoshlar safida Germaniyaga o‘qishga yubordi. Bu qaror ortida, tabiiyki, muayyan siyosiy va iqtisodiy muddaolar ham bor edi: yangi tuzum sanoatni ko‘tarish uchun mahalliy mutaxassislarga ehtiyoj sezayotgan, shuning uchun ularni Yevropa maktablarida tayyorlashga intilardi. Kyosling shahridagi pedagogika maktabida tahsil olgan Muhammadjon Avazjonov Kottibus shahridagi “Oliy tekstil maktabi”ga kirib, tekstilchi-muhandis ixtisosligi bo‘yicha o‘qishni davom ettiradi. Shu tariqa Yevropaning ilg‘or sanoat maktablarida shakllangan mutaxassis sifatida voyaga yetadi.

1928-yil avgust oyida vatandoshlari – tekstil sohasida oliy ma’lumot olgan Isomiddin Alovuddinov va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida tahsil olgan Abdulla Po‘latov bilan birga SSSRga qaytadi. Sentyabr oyida Samarqandga yetib kelgan yosh mutaxassislarni O‘zbekiston hukumati rahbari Fayzulla Xo‘jayev qabul qiladi. Ayni shu uchrashuvdan keyin qahramonimiz o‘zi uchun mehnat yo‘lini yanada aniq belgilab oladi. U Moskva shahridagi “Освобожденный труд” fabrikasida amaliyotchi sifatida ish boshlaydi (1929). Bu yerda ishlab chiqarish muhiti bilan yaqindan tanishar ekan, nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. So‘ngra Moskvadagi 1-davlat jun tresti markaziy laboratoriyasida laborant bo‘lib faoliyat yuritadi (1929–1930). Aynan shu bosqichda u tekstil texnologiyalarining ilmiy asoslarini chuqur o‘zlashtiradi.

1930-yili “Qizil Sharq” trestida to‘qimachilik bo‘yicha muhandis yordamchisi bo‘lib faoliyat yuritadi. Shu orqali u sanoat tizimini yaxlit tushunadigan mutaxassis sifatida tajribasini boyitadi. Shundan keyin bevosita O‘zbekistondagi ishlab chiqarishga jalb etiladi. 1930–1931-yillarda Farg‘onadagi tekstil fabrikasida to‘qimachilik sexi mudiri o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi. Qisqa vaqt ichida bu yerda o‘zini namoyon etib, 1931-yildayoq fabrika mudiri lavozimiga ko‘tariladi. 1931–1934-yillarda fabrikaning texnik qismlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari sifatida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlash ishlariga rahbarlik qiladi. 1934-yilga kelib esa to‘qimachilik ishlab chiqarish bo‘limi mudiri lavozimiga tayinlanadi.

Bu izchil o‘sishni uning bevosita xorijda olgan bilim-ko‘nikmalari va mahalliy sharoitni chuqur anglashi bilan bog‘lash mumkin. Shu jihatdan qaraganda, Muhammadjon Avazjonov 30 yoshga yetmasdan, mamlakat yengil sanoatida yetakchi mutaxassislar qatoriga kirib ulgurgan edi. U faoliyati ravon davom etayotgan, tajribasi tobora mustahkamlanib borayotgan bir paytda mamlakat miqyosida siyosiy vaziyat keskin o‘zgara boshlaydi. Ommaviy hibslar avj olib, ko‘p o‘tmay bu manzara Avazjonov taqdirida ham aks etdi.

1937-yil 6-sentyabr kuni Farg‘ona shahar NKVD boshqarmasi xodimlari Muhammadjon Avazjonovni hibsga oldi. Shu kunning o‘zida uyida tintuv o‘tkazilarkan, pasporti, Germaniyadagi Oliy Pruss tekstil industriya institutini tamomlagani bo‘yicha diplom va guvohnomalari, sohaga oid ilmiy kitoblari, nemis tilidagi adabiyotlar, albom va suratlari musodara qilinadi. Tintuv ertasi kuni ham davom etib, bu safar uyda qolgan barcha ashyolar (jomadon, kamar, qalamdon, ruchka, shaxsiy buyumlar va 60 so‘m pul) to‘liq xatlanib, bitta qo‘ymay olib ketiladi. Xonadon bir zumda ship-shiydam etiladi. Muhammadjon Avazjonovning turmush o‘rtog‘i hamda farzandlari – 1930-yili tug‘ilgan Inoyat, 1933-yili tug‘ilgan Lyuba butkul moliyaviy ta’minotsiz qoladi.

Tergov materiallarini tahlil qilar ekanmiz, ayblovlar tizimidagi soxtalik va ziddiyatlarni yaqqol kuzatamiz. Uning Germaniyada o‘qigani, xorijda bo‘lgani, bir nechta tilni bilgani ham ayb sifatida talqin etiladi. U “Ozod Turkiston” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi, Germaniya razvedkasi bilan aloqada bo‘lgan josus deb ko‘rsatiladi. Tergov hujjatlarida bu tashkilotning rahbarlari sifatida Olimjon Idrisiy va Ahmad Naim kabi shaxslar tilga olinadi. Shuningdek, Germaniya razvedkasining rezidenti sifatida Badri Sayfulmalikov bilan aloqada bo‘lgani haqida ayblovlar ilgari suriladi.

Muhammadjon Avazjonov adabiyot, san’at, fotografiyaga qiziqqan. Bu ko‘ngil ishini uning Germaniyada o‘qigan kezlari fotoapparat sotib olgani, bo‘sh vaqtlarida tabiat, tarixiy binolar, do‘stlar davrasi va boshqa turli manzaralarni tasvirga muhrlab qo‘yganidan payqaymiz. Afsuski, tergovda ayni shu suratlar shubha manbayiga aylantiriladi. 1937-yil 9-sentyabrda o‘tkazilgan ilk so‘roqda tergovchi e’tiborni ana shu fotosuratlarga qaratib, ular orqali turli gumonlarni ilgari suradi. 30-sentyabr kuni tasdiqlangan qarorda Muhammadjon Avazjonov hech qanday aniq dalillar keltirilmagan holda josuslikda ayblanadi. Unga O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 57-moddasi I qismi – vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish kabi og‘ir ayblar qo‘yiladi.

...1938-yil kuzida ish sudga oshiriladi. 1937-yil sentyabridan 1938-yil oktyabrigacha bo‘lgan bir yillik vaqt Muhammadjon Avazjonov uchun uzluksiz so‘roq, qiynoqlar, bosim ostida kechadi. 9-oktyabr kuni Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Sud yopiq holda o‘tkaziladi va bir necha daqiqa davom etadi. Bir inson taqdiri oldindan belgilangan holda, sanoqli daqiqalik sudda hal qilinadi-qo‘yadi. Muhammadjon Avazjonov bir nechta moddalar bo‘yicha aybdor deb topilib, oliy jazo – otuvga hukm qilinadi. Hukm oshig‘ich amalga oshiriladi.

Stalin davri qatag‘onlari qayta ko‘rib chiqila boshlangan yillarda Muhammadjon Avazjonov ishi ham yana bir bor ko‘tariladi. Jarayonda uni yaqindan tanigan-bilgan shaxslar guvohlikka chaqiriladi. Jumladan, 1956-yil 9-noyabr kuni Toshkent tekstil kombinati tizimida ishlagan mutaxassis, o‘sha vaqtda maktab direktori bo‘lgan Leonid Rozensvitning ko‘rsatmasi e’tiborga molik. U 1934-yilda Ivanovo tekstil texnikumini tamomlab, ish faoliyatini Toshkentda boshlagani, shu orqali Farg‘ona tekstil kombinati va uning qoshidagi texnikum bilan hamkorlik qilganini ta’kidlaydi. Shu faoliyati davomida u Muhammadjon Avazjonov bilan yaqindan tanishgan. Rozensvit ko‘rsatmasida: *“Menda u tekstil sohasida mavjud barcha texnologiyalarni mukammal biluvchi va har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida yaxshi taassurot qoldirgan. Shu vaqt davomida biror marta uning aksilsovet faoliyatini sezmaganman yoki biror odamdan shunga o‘xshash fikrlarni ham eshitmaganman”*, deydi.

Bunday ko‘rsatmalar Muhammadjon Avazjonov kabi o‘z sohasining yetuklari tizim uchun xavf sifatida qabul qilingani, ularga nisbatan sun’iy ayblovlar to‘qib-bichilganidan dalolat beradi. Bu yog‘i o‘zingizga ma’lum...

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori,**
**professor**

AZIZ XOTIRA



# QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Mirza Abdulla Soliyev** – 1889-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1925-yildan O‘zbekiston kompartiyasi a’zosi bo‘lgan. “Yangi Farg‘ona” gazetasi tahririyati idorasida mudir bo‘lib ishlagan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. Ashurali Zohiriy bilan avvaldan aloqada bo‘lgan va uning taklifi bilan “Botir gapchilar” tashkilotiga a’zo bo‘lganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 11-moddasi bilan ayblanib, OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan mamlakatda yashash huquqidan mahrum etilgan. Uch yil muddatga Chita shahriga surgun qilingan.

**Sa’dullaqori Shomuhammedov** – 1892-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Chakana savdo bilan shug‘ullangan. 1929-yil 12-noyabrda hibsga olingan. “Milliy istiqlol”ning targ‘ibot guruhida faol ishtirok etganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan OGPU kollegiyasi uni 3 yil muddatga konslagerga yuborgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

**Qayum Ramazonov** – 1900-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Onasi yordamida savod chiqargan. 1909–1915-yillarda Eshonxo‘ja Xoniy va Munavvar qori Abdurashidxonovning yangi usul maktabida hamda madrasada ta’lim-tarbiya olgan. 1916–1917-yillarda Boku shahridagi pedagogika institutida o‘qigan. 1918–1921-yillarda o‘qituvchilar tayyorlash kursi va boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchilik qilgan. Abdurauf Fitrat bilan birgalikda “Chig‘atoy gurungi”ni tashkil qilgan va unda kotib bo‘lib ishlagan. Turkistondagi “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetalarida adabiy xodim, 1929–1930-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy ijroiya komiteti huzuridagi Yangi o‘zbek alifbosi Markaziy Qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan. 1934–1937-yillarda fan komiteti huzuridagi til va adabiyot institutida dotsent vazifasida ishlagan. Teatr tanqidchisi sifatida “Abu Muslim”, “Uyg‘onish”, “Yalang‘och Eshon”, “Shayx San’on”, “Farhod va Shirin”, “Malikai Turondot”, “Hujum”, “Halima” spektakllariga taqriz yozgan. O‘z davrida o‘zbek maktablari uchun asosiy darsliklarni yaratgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Qayum Ramazonov otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

**Oqilxon Dadaxo‘jayev** – 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1905–1909-yillari eski maktabda, 1909–1911-yillari rus-tuzem maktabida o‘qigan. 1918-yili Toshkentda ochilgan 8 oylik pedagogika kursiga o‘qishga kirgan. O‘zbek maorif institutida tahsil olgan. Institutni tamomlagandan so‘ng Toshkentdagi 8-sonli internatda, 15-sonli maktabda hamda 2-sonli internatda ishlagan. Hibsga olingunga qadar Toshkent tibbiyot institutida o‘zbek tilidan dars bergan. 1942-yili Ichki ishlar xalq komissarligi “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zolariga nisbatan qayta ish ochilganda qahramonimizga ham aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlik aybi qo‘yilib, “Vatan xoini” deb e’lon qilingan. Sovetlarga qarshi millatchilik tashkilotida qatnashganligi uchun 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Uning keyingi taqdiri aniq emas. Lekin Oqilxon Dadaxo‘jayev 1957-yili 15-aprelda to‘liq reabilitatsiya qilingan.

**Azizbek MAHKAMOV,**
**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**Nigoraxon AKBAROVA,**
**tadqiqotchi**

**(Davomi kelgusi sonda).**

# NODIR QO‘LYOZMA

**Boshlanishi 1-sahifada.**

Ubaydulloh ibn Mas’ud yoshlik yillarini Kirmonda o‘tkazgan. Keyinchalik Hirotda tahsil olgan va umrining oxirigacha Buxoroda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan. Alloma 1346-yilda shu yerda vafot etgan.

Ubaydulloh ibn Mas’udning mazkur risolasi qo‘lyozmalarda turli nomlar bilan qayd etilgan: “Risolatu fil-aruz”, “Risolatu fi usuli buhur assitta ashara”, “Buhur al-usul” va boshqalar. Risolada aruz ilmiga oid 16 bahr qoidalari ixcham va ramziy shaklda bayon etilgan. Ayrim nusxalarda baytlarga noma’lum muallif tomonidan qisqacha sharhlar ham ilova qilingan. Asarda vaznlar, ularning tarkibi va qo‘llanish xususiyatlari tushuntiriladi.

Qo‘lyozma nusxalari Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasining turli to‘plamlarida (Lala Ismoil, Shahit Ali Posha, Qilich Ali Posha va boshqalar) hamda Anqara Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Ularda matn asosan qora siyohda, muhim joylari esa qizilda yozilgan. Ayrim nusxalarda hoshiya izohlari, qo‘shimcha sharhlar va keyingi davr olimlarining mulohazalari ham uchraydi. Xususan, ba’zi nusxalarda baytlardan keyin “Sharhu abyat al-xamsa” sarlavhasi ostida qisqacha sharhlar keltirilgan. Ayrim qo‘lyozmalarda esa she’r vaznlari tahlil qilingan.


Ushbu asar aruz ilmining nazariy asoslarini qisqa va tizimli shaklda bayon etgan muhim manbadir. Shuningdek, u aruz ilmining XIII-XIV asrlardayoq shakllanganini ko‘rsatadi.

Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoriyning mazkur risolasi aruz ilmining ilk bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni chuqur tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

**Abduvohid O‘ROZOV,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti**

TARIX VA TAQDIR

# TASMAGA TUSHMAGAN UMR



**Yurtimizda milliy fotografiya va kinematografiya san’ati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Xudoybergan Devonov jadid harakatining ham haqiqiy namoyandasi bo‘lgani bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda.**

Xudoybergan Devonov 1879-yili Xivada ziyoli oilada dunyoga keladi. Otasi Nurmuhammad devon saroyda xizmat qilgani tufayli yosh Xudoybergan ham saroy bilan yaqin muhitda ulg‘ayadi. U zehnli, qiziquvchan, tirishqoq bola edi. Otasi uni soatsozga shogirdlikka beradi. Bu hunarni sevib o‘rganayotgan yigit bir muddat o‘tib, foto va kino san’atiga qiziqib qoladi.

O‘sha kezlari Xivadan uncha uzoq bo‘lmagan Oqmasjid qishlog‘ida Rossiyadan surgun bo‘lgan nemis mennonitlari istiqomat qilardi. Ularda mahalliy aholiga hali notanish bo‘lgan ko‘plab yangi ixtirolar bor edi. Shulardan biri fotokamera bo‘lib, Vilgelm Penner Devonovni o‘ziga shogird qilib oladi va unga fotografiya san’atini o‘rgata boshlaydi. Xivalik yosh yigitning fotografiya bilan shug‘ullanayotgani haqidagi xabar tezlikda yon-atrofga tarqalib, bu yangilik eng ko‘p ulamolarni tashvishlantiradi. Mutaassib kishilar shariat qonun-qoidalarini ro‘kach qilib, Devonovga ta’na toshlari ota boshlaydi. Fotografiya va kino chet elda, ayniqsa, Yevropada tez rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, Turkiston uchun bu hali yot tushuncha edi.

Taniqli san’atshunos Hamidulla Akbarov tadqiqotlarida yozishicha: “Xudoybergan Devonovning faoliyati birinchi rus kino san’atkorlari ijodi bilan deyarli bir vaqtda boshlandi. Devonov Xorazm vohasiga kelgan kinematografchi gastrolyorlardan kino apparati bilan “muomala” qilishni o‘rganib, o‘zining demokratik va ma’rifatparvarlik o‘ylarini yuzaga chiqarishda undan vosita sifatida foydalandi. U vaqtda dekoratsiyalar, pavilonlar, sun’iy nur manbalari... yo‘q edi. Devonov dekoratsiyalar o‘rnida minoralar, qo‘rg‘onlar, saroylarning guldor eshiklaridan... maktab va internatlar, kolxoz gulzorlari va qurilishlardan foydalandi. Janubning jazirama oftobi – nur manbayi, xalq – film qahramoni bo‘ldi. Devonovga qadar ba’zi rus va chet el kinofirmalari ham Xorazmning hashamatli binolarini suratga olishga qiziqqanlar. Lekin ularni xalq hayoti va turmushi emas, faqat xon saroylari, harbiy majlislar qiziqtirgan, xolos. Xudoyberganning xuddi shu davrda yaratgan filmlari mavzusi o‘zgacha bo‘ldi. Necha yuz metr kinolenta, mingdan ortiq fotosuratda Devonov Xorazm xalqining mehnatini, urf-odatlarini, Xivaning qadimgi yodgorliklarini aks ettirdi”.

Xudoybergan Devonov Xorazm xoni Muhammad Rahimxon II ning o‘sha yillardagi bosh vaziri Islomxo‘janing ko‘magi bilan 1907–1908 yillarda Moskva va Sankt-Peterburgdan teleskop, grammafon, foto va kino apparatlarini olib keladi. Aynan shundan keyin uning chinakamiga fotograflik va operatorlik faoliyati boshlanadi. Uning ajralib turuvchi jihati shunda ediki, Devonov xalq uchun xizmat qilardi. U olgan suratlar va qisqa lavhalarda Xorazm xalqining haqiqiy hayoti sodda aks ettirilardi. Turli kasb egalari, Xorazm manzaralari, bozorlar, tarixiy obidalar va oddiy xalq uning foto va lavhalari qahramonlari edi. Xudoybergan Devonov boshqalardan mana shunday xalqparvarligi bilan ajralib turardi.

Demak, Xudoybergan Devonov o‘z kinolavhalari va fotosuratlarida ma’rifatparvarlik namoyandasi bo‘lganini isbotladi. Xivada fotografiya va kinolentalar bilan ishlashni o‘rgatuvchi o‘zining laboratoriyasi va maktabini tashkil qildi. Xususan, o‘tgan asrning 20-yillari boshida hukumat yordamida maktablar, internatlar, to‘garaklar ochib, ularda kino-foto ishlariga rahbarlik qildi, shu tarzda ta’lim-tarbiya ishlari bilan ham shug‘ullandi.

Xudoybergan Devonov jadid harakati namoyandalari tashkil qilgan “Yosh xivaliklar” guruhida ham ishtirok etib, ma’rifat tarqatishni istovchi bu harakatning maqsadlari amalga oshishi yo‘lida o‘z hissasini qo‘shdi, ular bilan bir safda faoliyat yuritdi. Afsuski, bu yangiliklar – xalqning ilm-ma’rifatli bo‘lishi sovetlarga yoqmas edi. Shu bois, jadid harakati vakillari tobora siquv ostiga olina boshladi va oxir-oqibat Stalin qatag‘onlari avj olgan yillarda ularning katta qismi shafqatsizlarcha otib tashlandi. Xudoybergan Devonov ham qatag‘on qurboni bo‘lgan mana shu millat oydinlari orasida edi.

O‘zbek kinosining tug‘ilishi rasman 1925-yilda “Sharq yulduzi” kinostudiyasi tashkil etilishi bilan belgilansa-da, Xudoybergan Devonovning ungacha bo‘lgan davrdagi sa’y-harakatlarini alohida e’tirof etish lozim. Birinchi bor foto va kino apparatlarini olib kelib, yangi san’at turini targ‘ib qilishi, maktab ochib yangi kasbni o‘rgatishi, shu bilan birga, boshqa jadidlar singari qatag‘on qurboni bo‘lganini inobatga olgan holda, Xudoybergan Devonovni chin ma’noda millat fidoyisi deya atash mumkin.

XX asrda Turkiston zaminida yashab o‘tgan ma’rifatparvar ajdodimiz Xudoybergan Devonovning xotirasi avlodlar qalbida mangu yashaydi. U suratga olgan kinolavha va fotosuratlar O‘zbekiston milliy madaniy merosiga kiruvchi beqiyos materiallar hisoblanadi. Ayni paytda, “Turkiston albomi va “Xudoybergan Devonovning Xorazm vohasi fotosuratlari” to‘plami YUNESKO tashkilotining “Jahon xotirasi” ro‘yxatiga kiritilgani bu bebaho meros nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun dunyo madaniy tarixida alohida o‘rin tutishidan dalolat beradi.

**Zebiniso RAHMATOVA,**
**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti**

YANGI KITOBLAR


# MUNOSIB TUHFA

**Bu yil O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 85 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanmoqda. Ayni sana munosabati bilan atoqli shoirning yangi to‘plami qozoq tilida nashrdan chiqdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan ushbu kitobdagi she’rlar tarjimon va shoir Saparbek Imanbekov tomonidan qozoq tiliga o‘girilgan.**




“Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “O‘zbekiston”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi?”, “Birinchi muhabbatim”, “Majnuntol”, “To‘lin oy”, “Sozim”... Bu mashhur she’rlarni bilmagan, ulardan hech qursa ikki misra yod o‘qimagan kitobxon yurtimizda topilmasa kerak. Qozoq millatiga mansub yurtdoshlarimiz va qardoshlarimiz endi bu betakror asarlardan o‘z tilida bahra olish imkoniga ega bo‘lgani quvonarlidir.

# YANGI SAYLANMA




**Zamonaviy o‘zbek adabiyotida iste’dodli shoir va tarjimon Usmon Qo‘chqorning o‘z o‘rni va ovozi bor. Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan yangi “Saylanma” Usmon Qo‘chqor qalamiga mansub. Kitob shoirning o‘zi tartib bergan asarlari asosida tayyorlangan, jumladan, turli yillarda yozgan sara she’rlari, “Quvg‘un” dostoni va “Imom Buxoriy” dramalari ushbu salmoqli to‘plamdan o‘rin olgan.**

Kitobga yozilgan so‘zboshida shoir she’rlarining mohiyati bilan bir qatorda, uning tarjimonlik mahorati, xususan, ozarbayjon adabiyotidan tarjimalari haqida ham fikr yuritiladi.

Chiroyli dizaynda taqdim etilgan mag‘zi to‘q asarlar o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi, deb o‘ylaymiz.

**Nigina ISKANDAROVA**

MUTOLAA

# JURNALNI VARAQLAGANDA...

**“Sharq yulduzi” jurnali chop etila boshlaganiga joriy yil 95 sana to‘ldi. Asriy yo‘lni bosib o‘tayotgan nashr jamoasi yangilanish g‘ayratshijoati bilan faoliyatini davom ettirmoqda. Kuni kecha jurnalning 2026-yil hisobidan 3-soni chop etilib, mushtariylar qo‘liga yetib bordi.**

Milliy adabiyotimizning tiniq ko‘zgularidan biri bo‘lgan oynoma sahifalarida qutlug‘ yoshlarini nishonlayotgan adiblarning yangi ijod mahsuli va ular haqidagi fikrlar, tarixiy mavzudagi asarlar hamda yoshlar qalamiga mansub she’rlarni o‘qish mumkin. Jurnal muqovasi rassom Ilhom Osmonning “Bahor nafasi” asari bilan ziynatlangan, ichki muqovada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Abdusaid Ko‘chimov hayotiga oid fotolavhalar joy olgan.

“Nazm” ruknida taqdim etilgan she’rlar orasida Abdusaid Ko‘chimovning “Mangudir falakka tutash qoyalar” hamda Abdurasul Jumaqulning “Seni ko‘rgim keldi judayam” turkumi alohida ajralib turadi. Ushbu rukn mazmun-mohiyatini to‘ldirishda Muhammad Ismoilning “Shlyapa kiying, ustoz” badihasi hamda Salim Ashurning “Somon yo‘liga tutashgan yo‘l” ocherki yordamga keladi. Shuningdek, Oygul Suyundiqovaning she’riy satrlari shabnamday tiniq va beg‘uborligi bilan o‘quvchiga bahoriy kayfiyat bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, adabiy jurnalning asosiy toshi nasriy asarlarda bo‘ladi. Tahririyat o‘quvchi oldidagi mas’uliyatni unutmagan holda, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Bibixonim” dramasi hamda yozuvchi To‘lqin Hayitning “Otilla” romanini taqdim etadi.

Oliy maktabda saboq olmagan holda, alohida tayyorgarlikni talab qiluvchi bir qancha zamonaviy kasblarni egallash uchun inson qanchalar iste’dodli va mehnatkash bo‘lmog‘i kerak? Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Jadidlar” ruknidagi aka-uka Hasanxon va Husaynxon Niyoziylar haqida “Iste’dodli egizaklar va iste’dod egizaklari” maqolasi bilan tanishar ekansiz, bu savolga javob topasiz.

Bahor yoshlik va muhabbat fasli, bu davrda qalamkashlar yuragidan eng toza tuyg‘ular qog‘ozga to‘kiladi. “Yoshlar ijodi” ruknida Islom Alining “Shoirlar ko‘ngilga aylanar kuzda”, Go‘zalxon Oxunovaning “Gulning yaprog‘iga toshni sepganlar” she’riy jamlanmalarini o‘qiysiz.


G‘ofur Hamroning “Haqqoniy va xalqona” maqolasida 2025-yilda chop etilgan qissalar badiiy tahlil qilinadi. Muhammad Mamatvaliyevning “Maktublarda bordek haqiqat” ruknida chop etilgan “Shayxzodashunoslikdagi ba’zi muammolar” maqolasi ham sizni befarq qoldirmaydi.

“Bolalar dunyosi” sahifalari har galgidan ko‘ra rang-baranglik kasb etgan. Kichik yoshli jurnalxonlar unda Muhtarama Roziqovaning “Oshqovoqmi, bo‘shqovoq?”, G‘ofur Bolqiyevning “Oq terakmi, ko‘k terak”, E’zoza Alimovaning “Mehr bermoqqa shaymiz” singari serzavq she’riy jamlanmalaridan bahramand bo‘ladi.




Mutolaa odamning dunyoqarashini kengaytiradi, falsafiy mushohadaga chorlaydi hamda badiiy didi yuksalishiga sabab bo‘ladi. “Sharq yulduzi” tahririyati ana shu yo‘lda yangi va yaxshi asarlarni e’lon qilishda, xususan, yoshlarga minbar berishda sobitqadamdir.

**O‘ktam HAMRALIYEV**



“Hayot rang-barang holatlarning almashinuvidir. Istagan joyda qulay ahvolda qolish uchun ularni o‘rganish, kuzatish kerak.

**Onore de BALZAK**

TO‘RTARMOQDA NIMA GAP?

# “Vatan tashlab ketmas hech qachon”




**1990-yilda Iroq va Quvayt o‘rtasidagi urush paytida 170 000 dan ortiq hindistonliklar begona yurtda qolib ketadi. Pulsiz, aloqasiz va ertangi kunga umidsiz. O‘sha urush sababli Hindiston dunyo tarixidagi eng katta evakuatsiyalardan birini amalga oshiradi – o‘z fuqarolarini urush ichidan olib chiqadi. AIR India kompaniyasi Ginnes rekordlar kitobiga kirgan 488 ta parvozni amalga oshiradi.**

Bu voqeani men dam olish kunlari tomosha qilgan “Qutqaruv parvozi” (“Airlift”) hind kinosi orqali ko‘rdim. Bu men uchun shunchaki kino emasligini his qildim. Eng avvalo, yurtimdagi tinchlik uchun Allohga cheksiz hamdlar aytgan bo‘lsam, yana menga ta’sir qilgan boshqa holatlar ham ko‘p bo‘ldi. Bu haqda nima uchun yozayotganimni so‘zim oxirida xulosa qilaman.

Filmdan kichik voqea: o‘zlarini deyarli quvaytlik deb hisoblagan hindlar o‘sha qiyin onlarda o‘z davlatidan panoh kuta boshlashadi. o‘shanda bir hind boshqasiga: “Nimaga bizga davlat yordam bermayapti? Nima qilib berdi bizga davlat?” degan savollarni qo‘yadi. Shunda boshqasi: “Aslida, biz o‘zimizni quvaytlik deb hisoblar edik, shu yerda yashayapmiz, endi boshga ish tushganda, biror joyi og‘riganda onasini eslagan boladay, davlatimizni eslab qoldik. Biz o‘zimiz davlatga nima qildik?” degan javobni beradi. Ko‘pgina harakatlar natijasida ular davlatdan yordam olishga erishadi. Hindiston hukumati o‘z fuqarolarini evakuatsiya qilish yechimini topadi va buning uchun bor imkoniyatini safarbar qiladi.

Shu yerda bir narsani o‘ylab qoldim. Qarang, aslida, kino san’ati – bu, shunchaki hikoyalar jamlanmasi emas. Bu – davlat obrazini yaratadigan kuch. Bu – tarixni, qadriyatlarni ko‘rsatadigan va ishonchni shakllantiradigan kuchli vosita.

Bizning davlatimiz ham turli qiyin inqirozli vaziyatlarda, masalan, pandemiya paytida, Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi vaziyatlarda o‘z fuqarolarini himoya qilgan va qilib kelmoqda. Bizda ham ko‘rsatsa bo‘ladigan shunday hikoyalar bor. Lekin ular hali ham bunday kuchli hikoyalarga va his-tuyg‘ularga aylanmagan.

Film yakunida aeroportda hindlarning evakuatsiyasi uchun ko‘tarilgan bayroqdan xuddi o‘zim qutqarilayotgandek suyundim, tasavvur qiling, o‘z bayrog‘ingni ko‘rganda qanday ta’sir qilishi mumkin!

Bizda ham shunday haqiqiy, kuchli va tabiiy ravishda insonning o‘z davlatiga mehrini oshiradigan voqealar ko‘p va ularni ko‘tarish kerak. Ehtimol, shunda yoshlarda ham g‘urur tuyg‘usi uyg‘onib, o‘zlariga “Bizning mas’uliyatimiz nimadan iborat degan?” savolni bera boshlashadi. Sababi, kino – bu, shunchaki ko‘ngilochar narsa emas, u odamning fikrlash tarziga, hissiyotiga va hatto qarorlariga ham ta’sir qila oladi. Shunday filmlar orqali davlat imijini nafaqat xalqimiz orasida, balki xalqaro darajada oshirsa bo‘ladi, lekin bunday filmlar juda kam suratga olinadi.

Filmni, albatta, ko‘rishni tavsiya qilaman. O‘ylab ko‘rish va xulosa qilish esa har kimning o‘ziga havola.

**Laylo RUSTAMOVA**
*Facebook*

MANTIQ

# “O‘LDIRSAYAM, MOSH O‘LDIRSIN”

**– Do‘stlarim, mosh ovqatimiz pishdi! – dedi Jamshid.**

**Talabalar turar joyida yangragan bu ovoz odatdagidek barchaning diqqatini tortdi. Bu gap ortida talabalikning shirin hayoti yashirin edi.**

– Mosh ovqat emas, osh ovqat degin, – dedi qo‘shni xonadagi Haydarali.

– Yo‘q, aynan mosh ovqat, – deya takrorladi Jamshid. – Bilasanmi, bozor-o‘char qilishga cho‘ntagimizda hemiri yo‘q. Shu sababdan, bisotimizda qolgan-qutgan moshni qaynatib yeyapmiz.

– Bizni ham sherik qilinglar, bizda qaynatib yeyishga mosh tugul, tosh ham yo‘q.

– O‘zi ozgina edi, qolaversa, yaxshi pishmabdi ham. Buni yeb qorinlaring og‘rib qolmasin, – ta’kidladi Jamshid.

– Mayli, o‘ldirsayam mosh o‘ldirsin, – dedi Haydarali.

Bunday holat avvallari oliy o‘quv yurtida tahsil olgan barcha sobiq bitiruvchilarning hayotida bo‘lgan, desam, xato emas. Hozirgi talabalar uchun bu gap shunchaki hazilga o‘xshab tuyulishi mumkin. Lekin u – yoshlikning samimiyati, do‘stlikning ilk poydevori va hayot maktabining achchiq, biroq yoqimli saboqlaridan biri edi.

Jamshid va uning xonadoshlari kabi minglab talabalar bir paytlar cho‘ntakda bir chaqa bo‘lmagan kunlarni boshdan kechirishgan. Bozor qilishga imkoniyat bo‘lmaganida, qolgan-qutgan moshni qaynatib, “antiqa taom”, “mosh emas, osh”, deb hazillashib yeyishgan. O‘sha mosh ovqat ham ba’zan yaxshi pishmas, ta’mi ham ko‘ngildagidek chiqmasdi. Lekin uning bir luqmasiga qorishgan birodarlik – eng lazzatli taomlardan ustun edi. Shu sababli, talabalar orasida “o‘ldirsayam, mosh o‘ldirsin” kabi hazilnamo maqollar shakllangan. Bunday suhbatlarning qadrini vaqt o‘tib anglaydi inson.

Qo‘shni xonadagi Haydaralining “Bizni ham sherik qilasizlarmi?” degan gapi esa talabalikning – bo‘lishish, o‘ziga yaqin olish, kamni ham ko‘p o‘rnida ko‘rish, borini baham ko‘rish kabi go‘zal fazilatlarini ochib beradi. Albatta, “o‘zi ozgina edi”, “yaxshi pishmagan”, “bu ovqatdan og‘zing yayramaydi”, deb taomni qizg‘angan



paytlar ham bo‘lgan. Ammo bu holatlar ham do‘stlikka putur yetkazmagan, aksincha, yanada yaqinlik uyg‘onishiga sabab bo‘lgan.

Oradan yillar o‘tdi. O‘sha kunlar orqada qolgan bo‘lsa-da, xotiralarda hali ham yashab keladi. Bir-biridan mosh ovqatni qizg‘angan yigitlar bugun turli sohalarda mehnat qilmoqda. Kimdir muhandis, kimdir tadbirkor, yana kimdir ustoz. Hayot ularni turli yo‘llarga boshlagan bo‘lsa-da, lekin bir narsa o‘zgarmadi – do‘stlik rishtalari. Endi ular uchrashgan vaqtda bir paytlar bir kosa moshni bo‘lisholmagan yigitlar choyxonada “men to‘layman”, “yo‘q, bu safar men” deb tortishadi. Bu jarayonda g‘urur ham, mehr ham, o‘tmishga bo‘lgan ehtirom ham mujassam. Chunki ular talabalikdagi qiyinchiliklar bo‘lmaganida, bugungi qadr-qimmatni ham his etmas edilar. Moshning ta’mi unutilar, lekin yo‘qchilikda topilgan do‘stlik – eng katta xazinadir.

Talabalik – faqat diplom olish marafoni, degani emas. Bu – inson bo‘lishni o‘rganish, birodar topish, hayotning haqiqiy qadrini anglash davridir. Shuning uchun ham o‘sha oddiy “mosh ovqat” haqidagi xotiralar inson qalbida eng totli hislardek saqlanib qoladi. Yillar davomida shakllangan va hazil ila “mosh o‘ldirsin”ga aylangan maqolning yana o‘z asli – “o‘ldirsayam osh o‘ldirsin” shakliga qaytgani – zamona zayli.

Bugungi farovon hayotimizda o‘sha tanqis kunlarga qaytishni istamaymiz. Lekin o‘sha kunlarni eslashdan, sog‘inishdan hech qachon charchamaymiz. Chunki o‘sha olis talabalikda bizning bosh maqsadimiz o‘qish, ilm olish, kitobxo‘rlik edi. Boshqa masalalar shunchaki ilova edi, xolos.

**Bahrom BOYMURODOV**

TILBILIM

# SOVISH VA SO‘NISH



**Olov sovigandan so‘ng so‘nadi. Tandir sovib qolibdi, O‘choqning cho‘g‘i sovigan degan gaplar o‘tning so‘nishini ham anglatadi. Xo‘sh, unda *sovish* bilan *so‘nish* so‘zlari ildizida yaqinlik bormi?**

Men buni “At-tuhfa” lug‘atida bir so‘z bilan tanishganimda sezib qoldim. Unda nisbatan *sovutdirdi* so‘ziga yaqin *sövyndyrdi* degan so‘z “so‘ndirdi” ma’nosida sharhlangan. Bu so‘zlar shaklan juda yaqin. Til o‘zgarishlari natijasida agar oradagi “v” tovushi tushib qolsa, *söyndyrdi* qoladi va keyingi *“y”* oldidagi *“ö”* bilan birlashadi. Qarabsizki, o‘z-o‘zidan *so‘ndirdi* so‘zi paydo bo‘ladi.

Lekin “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ga ko‘ra “so‘ndi” so‘zining ildizida “pasay”, “susay”, ma’nolaridagi “sön” so‘zi yotadi deyilgan.

**Eshqobil SHUKUR**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

**Bosh muharrir:**
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 497
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 024
Lotin yozuvida – 11 473
Media kuzatuvchilar – 82 115
Buyurtma: G – 440
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

**Mas’ul kotib:** Shuhrat Azizov
**Navbatchi muharrir:**
Muhayyo Rustamova

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**

**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

*Muassislar:*

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI